O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHABBAZOVA DILFUZA RUZIKULOVNA

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRIYATLI YONDASHUV

MONOGRAFIYA

Toshkent
“METODIST NASHRIYOTI”
2023

UDK: 37.091.33
KBK: 74.268.1 O'zb
Sh 84

Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda shaxsiy qadriyatli yondashuv. Monografiya. – Toshkent: “METODIST NASHRIYOTI”, 2023, 88 b.

Mazkur monografiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvning individual hamda guruhiy yo‘nalishlari aniqlashtirilib, pedagogik kuzatuv, jamoaviy va individual suhbat asosida o‘quvchilarning shaxsiy-ta’limiy qadriyatlari asoslanganligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishga shaxsiy-qadriyatli yondashuvning strategik modeli milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda shaxsiy qadriyatlarni psixologik-pedagogik mezonlarga muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilganligi, o‘quvchilar savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan individual va jamoaviy rivojlantiruvchi “Qadriyatli munosabatlarni shakllantirish” dasturi ishlab chiqilganligi bayon etilgan.

Monografiya tayanch doktorantlar, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
Sh.O‘. Nurullayeva
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:
X.B. Norbo‘tayev
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent
X.G. Sharafutdinova
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Termiz Davlat Pedagogika instituti Kengash yig‘ilishining 2023-yil 15-fevraldagi 5.6.1--sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9843-8-9

© Shabbazova D., 2023.
© “METODIST NASHRIYOTI”**, 2023.**

KIRISH

Jahonda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv jarayoni ta'lim tizimida ham o'z ifodasini topmoqda. Elementar bilimlar bilan qurollantirish hamda savodxonlikni oshirishda muhim bosqich hisoblangan boshlang'ich ta'limga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Boshlang'ich ta'limga, ta'lim jarayoniga individual yondashuv muammosiga turli mamlakatlar ta'lim sohasi vakillarida turlicha yondashuv amalga oshirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bola shaxsiga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich isnf o'quvchilari savodxonligini oshirish muammosi, ularning individual xususiyatlarini ro'yobga chiqarish, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendensiyalari ustunlik qiladi.

Dunyo ta'lim tizimida bolalarning bilim olish jarayoniga shaxsiy qadriyatli yondashuvni amalga oshirish boshlang'ich ta'lim sohasidagi yangilanishlarning alohida ko'rinishi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga tayanib, ta'lim jarayonida o'quvchilarga qadriyatli yondashib, ularni qo'llab-quvvatlab va rag'batlantirish orqali rivojlantirish borasida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Yevropa va yaqin xorij pedagogik soha izlanishlari natijasida yosh avlodning qadriyat yo'nalishi bo'yicha moddiy-pragmatik yondashuvga o'tish jarayonida shaxs ma'naviyatida salbiy jihatlar ko'payib borish havfi kuchli ekanligi aniqlanmoqda. Shaxsiy-qadriyatli yondoshuvga asoslangan ta'limda o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari va shaxsiy qadriyatlari borasidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz taraqqiyoti har tomonlama barkamol insonlar shaxsini shakllantirish masalasi bilan bog'liq. Buning uchun esa avvalo ularning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil tafakkurni hamda ahloqiy fazilatlarni yuksak darajada shakllantirish vazifasini zimmasiga olgan pedagoglar tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus

bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur"[1] – deb aytgan fikrlari muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Shu bilan birga ularda sharqona odob-axloqqa xos bo'lgan barcha xislatlar, fazilatlar, jumladan, kattalarga hurmat, shirin so'z, mehribonlik, yurtni e'zozlash, saxiylik va ilm egallash kabilar mujassam bo'lmog'i lozim. Bu borada bizga asosiy manba bo'lib millatimizga xos bo'lgan axloqiy qarashlar, tartib-qoidalarni o'zida mujassam etgan milliy qadriyatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son[3], 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmonlari[4], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16- yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son [7], 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307 son [6], 2019-yil 30-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori PQ-4467-son [8], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-187-son [10], 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-1059 son [9], 2020-yil 14-dekabrdagi "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-781 son qarorlari[11], shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

[1] Мирзиёев Ш.М. "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак". Тошкент 2017, 45-бет.

Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qadriyatli yondashuvga oid muammolar M.Abdullayeva, X.Axmedova, M.Inomova, Q.Nazarov[109], O.Musurmonova, U.Mahkamov, S.Nishonova, D.X.Kosimova[32], S.U.Kistaubayev[33], Z.B.Jalilov[31], G.Mamatova, G.A.Xolboyeva, X.S.Bakiyeva[27], E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin[82], Z.T.Nishanova[23], Sh.A.Do'stmuhamedova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva[87]lar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, ta'lim jarayoniga shaxsiy qadriyatli yondashuv masalasiga V.G.Aseyeva, L.A.Bloxina, A.N.Leontyev[99], V.N.Myasiщyev[106], A.N.Piyanzina, S.L.Rubinshteyn[123], V.A.Slastenin, A.A.Grisanov, V.A.Yadov, Ye.A.Rudenko, J.A.Bototova[28], G.I.Vergeles[29], L.N.Gabeyeva[30], Sh.A.Amonashvili[26], A.V.Molokova, N.S.Rojdestvenskiy[39], L.V.Abakumova[59], V.D.Shadrikov, I.S.Yakimanskaya, Ye.A.Nikolayeva, L.S.Slavina[128], L.Yu.Savinova[40]lar tadqiqotlarida e'tibor qaratilgan.

XXI asrda metodika fanlarida turli fanlarni o'qitish jarayonida qadriyatlarga munosabatni o'rganishga qiziqish ortmoqda. Jumladan, bir qator dissertasiya ishlari asosiy maktab fanlarini o'qitishda qadriyatli yondashuvga asoslangan (V.V.Nikolina, Yu.S.Andryushova, K.V.Derojinskaya, I.Yu.Azizova, O.M.Xlitina) va qisman umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda qadriyatli yondashuv amalga oshirilgan. Jumladan, L.Yu.Savinova dissertasiya ishi kichik maktab o'quvchilarida Vatanga qadriyatli munosabatni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, bu boradagi ko'plab izlanishlar (Yu.A.Volkova, A.N.Molokova, O.A.Lijina, Ye.D.Trofimova, N.V.Shilina, Ye.P.Kabkova va boshqalar) turli

fanlarni o‘qitish jarayonida kichik maktab o‘quvchilari tasavvurlarini shakllantirishga bag‘ishlangan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan I.Kant Maks Veber, Alen Turen, W.Dalton, Bech Ivan, Bezugla Marina, Nash Robert J., Roof, Wade Clark, V.Lappo, V.Frankl, Alexandra List, Eva W.Brante, Holly L.Klee[20]larning ilmiy ishlarida o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy qadriyatini rivojlantirish orqali savodxonligini oshirish masalasi yoritib berilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish metodikasi dissertasiya ishi darajasida o‘rganilmagan. Shu sohada amalga oshirilgan dissertasiya ishlarining tahlili mazkur mavzuning to‘g‘ri tanlangani va nazariy-eksperimental jihatdan yetarli o‘rganilmaganligini asoslaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda qadriyatli yondashuv asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvning xolati va uni takomillashtirish metodikasini tahlil qilish, savodxonlikni oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvga oid vaziyat va jarayonlarni tizimlashtirish hamda rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv mazmuni va tizimini aniqlash, shaxsiy qadriyatli yondashuv modeli ishlab chiqish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borish, natijalarni matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvning individual hamda guruhiy

yo‘nalishlari aniqlashtirilib, pedagogik kuzatuv, jamoaviy va individual suhbat asosida o‘quvchilarning shaxsiy-ta’limiy qadriyatlari asoslangan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishga shaxsiy-qadriyatli yondashuvning strategik modeli milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda shaxsiy qadriyatlarni psixologik-pedagogik mezonlarga muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan individual va jamoaviy rivojlantiruvchi “Qadriyatli munosabatlarni shakllantirish” dasturi ishlab chiqilgan;

o‘quvchilar savodxonligini oshirish metodikasi “Qadrlash”, “Men kimman?”, “Shaxsiy fazilatlar” nomli psixologik-pedagogik treninglar hamda “Menga yoqadigan bayramlar”, “Ajdodlar merosi” kabi tadbirlar asosida takomillashtirilganligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni qo‘llashga doir yo‘nalishlarni tanlash tamoyillari, ularga bo‘lgan didaktik talablar va tanlangan materiallarni o‘qitish metodikasi ishlab chiqilgan;

shaxsiy qadriyatli yondashuvga doir tanlangan materiallar mazmuni boshlang‘ich sinf o‘qish fani dasturidagi mavzular bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, o‘quvchilar savodxonligini oshirish metodikasi milliy va shaxsiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida takomillashtirilgan;

boshlang‘ich ta’limga shaxsiy qadriyatli nuqtai nazardan yondashuv va tizimli tahlil, interfaol, integrativ, zamonaviy metodlarni qo‘llash asosida bilim olishda ijobiy samaradorlikka erishish mumkinligi aniqlashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishga o‘qituvchilar metodik tayyorgarligini amalga oshirish pedagogik tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va metodikalar, foydalanilgan nazariy va amaliy xulosalarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va

pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, metodika, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinflari savod o‘rgatish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda qo‘llashning ilmiy-metodik va didaktik muammolarini hal qilish, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarida ma’ruza, bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi bajarishda umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinflarida shaxsiy qadriyatli yondashuvni qo‘llashga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan qurollantirish, boshlang‘ich sinflarda o‘qish fanini shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida o‘qitishga yo‘naltirilgan nazariy va amaliy materiallar asosida boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘qish va ona tili darslarida o‘quvchilarga shaxsiy qadriyatli yondashuvini diagnostika qilish va takomillashtirishning psixologik va pedagogik usullari ishlab chiqilgan, ilmiy-metodik tavsiyalardan o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari kurslarida foydalanish, tadqiqot natijalaridan o‘quv dasturlari tuzish va shu asosda o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratishda foydalanish, shuningdek, ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar pedagogik tadqiqot ishlarini o‘tkazish jarayonida foydalanish mumkinligini belgilab beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik va amaliy takliflar asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvning individual hamda guruhiy yo‘nalishlari tizimlashtirilib, xalq ta’limi tizimidagi ilg‘or tajribalarni kuzatish, pedagogik kuzatuv, jamoaviy va individual suhbat, so‘rov, test, matematik-statistik tahlil metodlari asosida o‘quvchilarning

shaxsiy-ta’limiy qadriyatlari aniqlashtirilganligiga oid xulosalardan fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan.

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishga shaxsiy-qadriyatli yondashuvning strategik modeli milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar hamda shaxsiy qadriyatlarni psixologik-pedagogik mezonlarga muvofiq tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan oid ma’lumotlardan “O‘qish darsida shaxsiy qadriyatli yondashuv elementlaridan foydalanish” nomli metodik qo‘llanma mazmuniga singdirilgan. Natijada boshlang‘ich ta’lim metodik ta’minotini takomillashtirish orqali o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini bergan.

I BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI SHAXSIY XUSUSIYATLARI VA QADRIYATLARI MUAMMOSINING NAZARIY TADQIQI

1.1-§. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsiy xususiyatlarining pedagogik va psixologik tavsifi

“Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yildagi qarori loyihasida “Mamlakatimizda yuksalish davri boshlandi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiyaga o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoitini tubdan yaxshilash, ta’lim sifatini oshirishning xorijiy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya ta’lim bilan uyg‘un, ammo o‘ziga xos shart-sharoitni, uzluksizlikni talab qiluvchi soha. Ta’lim – bilimdon yoshlarni, tarbiya – irodasi kuchli, vatanga sodiq, tadbirkor, mehr-oqibatli yoshlarni yetishtirib beradi. Bu esa O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini yangilangan milliy g‘oya negizida, milliy-zamonaviy, ilmiy-texnologik asosda isloh qilishni taqozo qilmoqda”[9] deb ta’kidlangan. Zotan, tarbiya sohasida eski – umumiy, mavhum, natijasiz yondashuvdan voz kechib, aniq, bugungi talablarga chidamli, tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllanishni talab etmoqda. Tayanch kompetensiyalar deganda o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini real hayotda uchraydigan amaliy vazifalarni bajarishda qo‘llash imkoniyati tushuniladi. Bunga tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, tayanch fazilatlarni kafolatli loyihalashtirish va o‘rgatishda oila, maktabgacha ta’lim muassasasi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to‘liq ishlatish va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tarish orqali erishish mumkin[9].

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan “mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[3] vazifasi shaxsni aqliy jihatdan shakllantirishga,

mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida faol va samarali ishtirokini ta’minlashga zamin yaratadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi uzluksiz ta’lim tizimining asosiy poydevorini tashkil etib, o‘quvchilarning kelgusi faoliyati ana shu bosqichga bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda ham tub yangilanishlar ro‘y berib, o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish, ularning o‘qishga, ta’lim olishga bo‘lgan intilishlarini oshirish va ushbu jarayonda ularni faollikka undash ushbu yangilanishlarning alohida ko‘rinishi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilishga bo‘lgan faoliyat, ya’ni intilish va shaxsiy faollik bo‘lmas ekan, u bilan olib borilgan har qanday pedagogik faoliyat o‘zining samarali natijasini berishi aslo mumkin emas.

Ta’lim samaradorligini oshirishda o‘yin faoliyatidan o‘quv-biluv faoliyatiga o‘tish imkonini beradigan metodlarni ishlab chiqish ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga bo‘lgan munosabatning shakllanish bosqichi, boshqalarning e’tibori va e’tirofiga, ma’qullashi va qo‘llab-quvvatlashiga bo‘lgan ehtiyojlarning yuqori darajaga ko‘tarilishi va albatta o‘zini namoyon etishga intilishi kabi xususiyatlarini inobatga oladigan bo‘lsak, kattalar, ayniqsa o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya berishda ular uchun qadr-qimmatli va maqbul hisoblangan narsa-hodisa va voqealarga e’tiborli bo‘lib qo‘llab-quvvatlash, zarur hollarda rag‘batlantirish pozisiyasida turishlari maqsadga muvofiqdir.

O‘quv faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori bosqichda shakllanishi, balki shaxs xususiyatlarini shakllantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Boshlang‘ich sinfda o‘quv faoliyati jarayonida o‘quvchi shaxsining rivojlanishi davom etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ta’limdagi yutug‘i uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobiy asos bo‘ladi. Buning natijasida o‘quvchining o‘zidan o‘zi oilasi, o‘qiyotgan sinfi, do‘stlari va boshqa guruhlardagi o‘z o‘rnini anglayotganini ko‘rish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida (6-10 yosh) mazkur yoshda shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari va insoniy fazilatlari yaqqol ko‘zga tashlana boshlaydi. Bu xususiyatlar ularnig kattalarni hurmat qilishi, o‘z emosional va ichki kechinmalarini boshqarish

koʻnikmasiga egalik; qatʼiyatlilik; nisbiy erkinlik; oʻz oldiga maqsad qoʻyishi; xarakterini ijtimoiy jamoatchilik nuqtai-nazardan baholashga harakat qilish; vaʼdaga vafo; burch va javobgarlik; oʻz-oʻziga, oʻz harakatlari, nojoʻya qiliqlari, oʻrinsiz gaplari, beixtiyor salbiy nigoh tashlagani uchun shaxsiy munosabatini bildira olish kabilar. Shuningdek, oldiga qoʻygan maqsadini amalga oshirish uchun harakat qilish, masʼuliyat bilan yondoshish hamda faollik kabi sifatlar ham shakllanadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchisining eng muhim qadriyati sifatida omilkorlik hamda mahsuldorlik koʻzga tashlansa, ularning mazkur davrda salbiy hulqlari ham namoyon boʻlib boradi. Bu salbiy oʻzgarishlar ijobiy sifatlarning shakllanmagani, ong hayotning barcha qirralarini qamrab olmasligi, muammolarni hal qilishda tafakkur qilish darajasining pastligi, bilimlarni oʻzlashtirishdagi faollikni yetishmasligida koʻzga tashlanadi.

L.S.Vigotskiy “Taʼlim va psixik taraqqiyot” toʻgʻrisidagi konsepsiyasida kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda shaxsiy xususiyatlarning koʻrinishini alohida taʼkidlab oʻtadi. Mazkur konsepsiyada oʻquvchining taraqqiyoti ikkita zonaga ajratiladi. Uning tomonidan 1932-1934 yillarda ilmiy isteʼmolga kiritilgan “yaqin taraqqiyot zonasi” hamda “taraqqiyotning aktual zonasi” termini taʼlim bilan bola ruhiy taraqqiyotini bogʻlash uchun qoʻllanilgan.[78,79]

“Taraqqiyotning aktual zonasi” oʻquvchining shu kungacha mustaqil egallagan tushunchalari, tajribasi boʻlib, avvalo oʻquvchining tabiiy imkoniyatlari, hayotiy vaziyatlar va muhit taʼsirining natijasidir. «Yaqin taraqqiyot zonasi» hali shakllanib ulgurmagan, ammo shakllanish jarayonida boʻlgan, ertaga shakllanadigan, xozircha tugʻilish arafasida turgan funksiyani; taraqqiyotning mevasi emas, balki taraqqiyotning faqat yetilishi kerak boʻlgan asosini tashkil etuvchi funksiya hisoblanadi.[79]. Uning fikricha, “Yaqin taraqqiyot zonasi” boshlangʻich sinf oʻquvchisi hali mustaqil yecha olmaydigan, ammo kattalarning birgalikdagi faoliyati yordamida hal qila oladigan topshiriqlarning mazmunini tashkil etadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchisining kattalar yordamida erishgan yutuqlari keyinchalik uning shaxsiy tajribasi (koʻnikma va

malakalari) ga aylanadi. Bu esa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixik rivojlanishida kattalarning yetakchi rolini ko‘rsatib beradi. L.S.Vigotskiyning fikricha, rivojlanish jarayoni ta’lim jarayoni bilan izma-iz boradi. Darhaqiqat, boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan ta’lim faoliyati o‘quvchining yaqin taraqqiyoti zonasiga, ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kattalar bilan birgalikdagi harakati natijasida namoyon bo‘ladigan va keyinchalik shaxsiy erkin faoliyatida amal qiladigan, shuningdek, avval o‘quvchida shakllangan ilmiy tushunchalar tizimiga asoslanadi. “Yaqin taraqqiyot zonasi” tushunchasi, shuningdek, taraqqiyotning imkoniyatlari va istiqbolini tavsiflash imkonini beradi. Uni aniqlash o‘quvchining psixik rivojlanishini tashxis qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. “O‘quvchining o‘zi mustaqil bajara oladiganlaridan kattalarning ko‘magi va bargalikdagi faoliyati bilan egallaydigan tajibaga o‘tishdagi katta yoki kichik imkoniyati o‘quvchilarning taraqqiyot dinamikasi va aqliy faoliyati muvaffaqiyatining eng sezgir simptomi bo‘la oladi”[78].

L.S.Vigotskiyning “Oliy psixik funksiyalarning tarixiy-madaniy rivojlanishi” haqidagi konsepsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faqat aqliy rivojlanish masalasigagina emas, balki ularning umumiy taraqqiyoti, jumladan, shaxsiy qadriyatli rivojlanishiga ham xizmat qiladi.[79] Ta’lim-tarbiya jarayonida hali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘liq shakllanib ulgurmagan qadriyatlar tizimining tarkib topishi bevosita o‘qituvchining shaxsiy namunasi va pedagogik ta’siri tufayli maqsadli shakllantirish imkoniyatlari mavjud. Demak, o‘quvchi maktabga kelguniga qadar ham unda ma’lum qadriyatlar shakllangan bo‘ladi, maktabga kelgandan so‘ng esa, DTS asosida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayoni ta’sirida ulardagi qadriyatlar to‘g‘ri yo‘naltiriladi, kengayadi va muayyan qadriyatlar tizimining shakllanishiga zamin yaratiladi.

Hozirgi zamon pedagogika tamoyili insonparvarlik xususyatiga ega bo‘lib, ta’limning asosiy maqsadi insonlarda mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlarni harakatlantirish, o‘z-o‘zini faollashtirishdan iborat. Ta’limning yangi paradigmasida o‘quvchi shaxsining ijtimoiy xususiyatlardan tashqari barcha jihatlari, “Men”ining mavjudligi, tanlash qobiliyati, refleksiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish

sub’yektiv xususiyatlar hisoblanib, ta’limning o‘quvchi hayotidagi shaxsiy mazmuni, mustaqil o‘quv faoliyati va o‘quvchining hayotiy tajribasi asosiy qadriyatlar hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchining o‘quv faoliyatida mustaqillik va tashabbuskorlik mas’uliyatiga erishishida o‘z faoliyatini nazorat qilishi, tug‘iladigan qiyinchiliklarni aniqlash va bartaraf etish alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ta’lim jarayoni sub’yekti sifatida faol harakat qiladi va ijodkorlikni namoyon eta boshlaydi. Shuningdek, o‘zidagi o‘ziga xos yangi potensial imkoniyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday faoliyat turi natijasida o‘quvchining o‘zi va taraqqiyot darajasi o‘zgaradi. Shuning uchun o‘quv faoliyatini tashkil etish boshlang‘ich ta’limning alohida ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlaridan biri hisoblanadi. O‘zini nazorat qilish harakatlari o‘quvchi o‘quv faoliyatining muhim komponenti sifatida ularning individual shakllantirilgan maqsadlariga nisbatan ta’limiy natijalari o‘zlari tomonidan refleksiv yuzaga chiqadi va baholanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatiga ehtiyoji ularning nazariy bilimlarni egallashga, o‘quv harakatlari motivlari esa ularning o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘naltirilgan tizimni egallashga undaydi (topshiriq – bu harakat maqsadi va uni egallash shart-sharoitlarining birligidir). O‘quv topshiriqning mazmunini xatti- harakatlar yordamida o‘quvchilar ayrim yaxlit ob’yektga taalluqli “qismni” aniqlash va shu “qism” orqali mazkur ob’yektni fikran tiklash usullarini egallaydilar. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar nazariy bilimlarni egallash usuli sifatida abstraktdan konkretlikka o‘tishning mikrosiklini amalga oshiradilar.

L.S.Slavinaning fikricha, boshlang‘ich sinflarda bilish faoliyati yetarli darajada shakllanmagan, “qobiliyati sust” bo‘lgan, aqliy jihatdan yetarlicha mustaqil qaror qabul qila olmaydigan o‘quvchilar mavjuddir. Shuningdek, olima boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muvaqqat turg‘unlikning oldini olishda o‘qish va o‘yin faoliyatida ularni fikrlashga va mulohaza qilishga o‘rgatish samarali natija beishini ta’kidlaydi.[128].

Birinchi sinf o‘quvchisida o‘qish jarayonining dastlabki natijalari uning boshqa materiallarni egallash sari boshlaydi. O‘quvchining o‘qish jarayonidagi birinchi mehnat unumi

xursandlik, sevinish va amaliy (zavqlanish) his-tuyg‘usini paydo qiladi. Ba’zi o‘quvchilar u yoki bu ob’yektni, matnni bir necha bor o‘qishni ham yoqtiradilar. O‘qish jarayoniga ko‘ra intilish, moyillik keyinchalik narsaning mohiyatiga qiziqishni paydo qilib qolmay, balki bilim olish ehtiyojini ham tug‘diradi, unda o‘qishga bo‘lgan motivlarini tarkib toptiradi.

Tadqiqotchi X.S.Bakiyeva boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni shakllantirishni o‘rganish jarayonida “Ona tili” va “O‘qish kitobi” darsliklaridagi ayrim badiiy matnlarda hissiyotlilik, tasviriylik yetishmasligini qayd etadi. U matnlar tahlilida ularning mazmunini boyituvchi lug‘aviy birliklar, iboralar, birikmalar, tasviriy vositalar ustida ishlanmasligi natijasida o‘quvchilar mazkur matnlarning leksik tarkibi va grammatik qurilishini quruq yodlab olishi va aynan qayta[27; 21-b.] tiklashini ta’kidlaydi va bunga bosh sabab sifatida o‘quvchilardagi lug‘at zahirasining cheklanganligini ko‘rsatadi.

Taniqli psixolog E.G‘.G‘oziyevning ta’kidlashicha, “Maktab ta’limining dastlabki kunidan boshlaboq, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch vazifasini o‘tovchi turli xususiyatga ega bo‘lgan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtilof kabilar vujudga keladi. Ushbu holat va vaziyat zamirida o‘quvchi shaxsiga, uning bilish jarayonlariga nisbatan o‘quv faoliyati, o‘qituvchilar va sinf jamoasi tomonidan qo‘yilayotgan talablar bilan o‘quvchining psixik kamolot darajasi va undagi mavjud insoniy fazilatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yotadi. Talabning tobora ortishi o‘quvchining psixik jihatdan to‘xtovsiz o‘sishini taqozo etadi va bu narsa boshi berk zanjirning uzluksiz harakati natijasida inson taraqqiyotida amalga oshadi.”[154]

Sh.A.Do‘stmuhamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayevalar “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” nomli kitobida boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etishi hamda psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanishini qayd etadilar. Ularning fikriga ko‘ra, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining muhim xususiyatlaridan biri, unda o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o‘quvchilik istagini aks

ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida oʻquvchining oʻz portfeliga, shaxsiy oʻquv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qoʻyish javoniga ega boʻlish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj oʻquvchi shaxsining shakllanishida, shuningdek, uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi"[87]. Bu davrda oʻquvchi fanlarni oʻzlashtirishga biologik va psixologik tomondan tayyor boʻladi. Fiziologlarning fikriga koʻra, 7 yoshga kelib oʻquvchining katta miya yarim sharlari ma'lum darajada rivojlangan boʻladi. Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus boʻlimlari hali toʻliq shakllanib boʻlmagan, ya'ni miyaning bu qismlari 12 yoshda rivojlanib boʻladi. Miya boshqaruv funksiyalarining toʻliq shakllanib boʻlmaganligi boshlangʻich sinf oʻquvchilarining xulq-atvorida, faoliyatni tashkil etishlarida va emosional sohalarida yaqqol namoyon boʻladi.

Birinchi sinfning ilk kunlaridan boshlab oʻquvchi yengishi kerak boʻlgan bir qancha qiyinchiliklarga uchraydi. Bu qiyinchiliklar: maktab hayotini oʻzlashtirish, yangi kun tartibini yaratish va unga moslashish, u uchun yangi boʻlgan sinf jamoasiga qoʻshilish, xatti-harakatlarini chegaralovchi qoidalarni qabul qilish, oʻqituvchi bilan munosabatlarni oʻrnatish, oilaviy munosabatlarni qabul qilish. Bunday vaziyatlarda kattalar, ya'ni ustoz va ota-onalar oʻquvchilarga albatta yordam berishlari zarur.

Birinchi bor maktabga kelgan oʻquvchi hali oʻzini toʻliq anglashi va oʻz xatti-harakatlarini idrok etishi qiyin. Faqat oʻqituvchigina oʻquvchiga me'yorlar qoʻyishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, oʻz xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlangʻich sinfda oʻquvchilar oʻqituvchi tomonidan qoʻyiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek ularning qoidalariga toʻla amal qilishga harakat qiladilar.

Oʻquvchi oʻquv faoliyatida oʻqituvchi rahbarligida insoniy an'analar asosida harakat qilishga oʻrganadi, irodasini ta'lim maqsadlariga intilish uchun mashq qildiradi. Ta'lim jarayoni oʻquvchidan nutq, diqqat, idrok, xotira va tafakkurini yetarli darajada rivojlantirishni talab etib, oʻquvchi xulq-atvorining

rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o‘tish davridir. O‘quvchi faol ravishda o‘zini o‘zi boshqarishga, qo‘yilgan maqsadlarga ko‘ra o‘zining faoliyatini tashkil etishga o‘rganish davridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davrida xatti-harakatlar yangi shakllarining paydo bo‘lishi bevosita o‘quv faoliyati bilan bog‘liqdir. Hech bir o‘qituvchi maktabga birinchi bor kelgan o‘quvchidan o‘zi o‘rgatmagan arifmetik misol va masalalarni yechishni talab etmaydi, lekin afsuski, juda ko‘p o‘qituvchilar ulardan qunt bilan o‘qishni, uyushqoqlikni, ma’suliyatlilikni, tartibga aniq rioya etishni talab etadilar. Vaholanki, ushbu ko‘nikmalar o‘quvchida ma’lum odat va malakalarga o‘rgatilganidan so‘ngina paydo bo‘ladi.

Ixtiyoriy ravishda harakat qilish layoqati butun boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davri davomida shakllanadi. Psixik faoliyatning oliy shakli singari ixtiyoriy xatti-harakatlar ular shakllanishining asosiy qonuniga bo‘ysunadi. Bunda yangi xatti-harakatlar, ya’ni kattalar bilan bo‘lgan umumiy faoliyatda vujudga kelib, o‘quvchi ana shu xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini o‘rganadi va shundan keyingina u o‘quvchining individual xatti-harakat usuliga aylanadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni amaliy jihatdan o‘z vaqtlarini to‘g‘ri rejalashtirishda natijasida yaxshi o‘qimoq, o‘ynamoq, sayr qilmoq va boshqa shu kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanish qoidalariga o‘rgatadilar.

Shu bois oilada, sinf jamoasida o‘quvchi u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o‘rinni egallaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davri bu ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar davridir. Shuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir o‘quvchi erishgan muvafaqqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Agar shu yoshda o‘quvchi bilish, o‘rganish quvonchini his etmasa, o‘qish malakalarini egallay olmasa, do‘stlashishni bilmasa, o‘ziga nisbatan, o‘z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan ishonchli bo‘la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo‘lib, o‘quvchida yuqori ruhiy va jismoniy zo‘riqish paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining “Men shuni istayman” motividan “Men shuni amalga oshirishim lozim” motivi ustunlik qila boshlaydi. Birinchi sinfga ilk qadam qo‘ygan har bir o‘quvchida psixik zo‘riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy sog‘lomligida, balki ayrim harakatlarida - ma’lum darajada qo‘rquvning kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi yonidagilar bilan shaxslararo munosabatda ma’lum bir yutuqlarga erishgan, o‘zi istagan narsalarni va sinf jamoasida o‘zi egallagan mavqeini aniq bilib boradi, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lib, yuzaga kelgan vaziyatga qarab ish yurita boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv faoliyati va motivlari ularning o‘zlariga beradigan baholariga qarab “Yaxshi o‘quvchiman” emas, balki bu xatti-harakatlar boshqalar ko‘z o‘ngida aynan qanday ko‘rinishiga qarab baholanishini tushunib yetishadi. O‘quvchi maktabda noaniqlikka duch kelsa, kattalarning xatti-harakatlari ma’nosini tushunmasa, unda taqlidchanlik rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining taqlidchanligi ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo‘lishi mumkin. Ixtiyorsiz taqlidchanlik ustozi va sinfdoshlarining xatti-harakatlarini o‘zlashtirishga olib kelib, o‘quvchi xatti-harakatlarni anglamagan ravishda egallaydi. Shuni hamisha yodda saqlash lozimki, o‘quvchi ixtiyorsiz ravishda nafaqat chiroyli va kerakli narsalarga, balki turli salbiy ko‘rinish va holatlarga ham taqlid qilishi mumkin. Ixtiyoriy taqlidchanlik irodaviy zo‘riqishni talab etadi. Bunday vaziyatlarda o‘quvchi maqsadga yo‘naltirilgan ravishda u - yoki bu xatti-harakatni amalga oshiradi, bu xatti-harakatlarini qoida, namuna, etalonga moslashtirishga intiladi.

O‘qituvchi o‘quvchidagi ixtiyoriy taqlidchanlik xususiyati orqali ularda samarali ijtimoiy odat va xislatlarni rivojlatirishi mumkin. Har qanday xatti-harakat va faoliyatda o‘qituvchi o‘quvchini baholaydi, shu baholash asosida esa o‘quvchi o‘z-o‘zini baholashga o‘rganib boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik va psixologik jihatdan samarali amalga oshirishlari uchun yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda barcha kerakli

xususiyatlarni egallagani bilan ularning ta’lim jarayoniga ko‘nikishi, ta’lim faoliyatiga ijobiy munosabatlarining shakllanishi uchun yetarli ko‘nikma va malakalarga ega emasligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta’lim faoliyatiga jalb etish, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishning samarali yo‘llarini o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish masalasi har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2.-§. Sharq mutafakkirlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kamolotida shaxsiy qadriyatlarning o‘rni haqidagi qarashlari

Bugun barcha soha mutaxassislari kabi pedagoglar ham hayotning turli jabhalarida ro‘y berayotgan, ta’lim sohasini ham chetlab o‘tmaydigan iqilobiy o‘zgarishlar va ularning ta’siridan tashvishda. Bugun o‘quvchilarni asrlar davomida sinalgan ta’lim-tarbiya usullari asosida yangicha o‘qitish zarurati haqidagi fikrlarga tayanish bitiruvchilarning zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga yetarli darajada imkon bermasligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Maktabda faoliyat yuritayotgan har bir pedagog o‘quv faoliyatini takomillashtirishning samarali usullarini topishga intilmoqda. Bunda pedagoglar oldida “O‘quvchida fanga qiziqish uyg‘otish uchun nima qilish kerak? (albatta, gap o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar haqida bormoqda), ularning ijodiy imkoniyatlarini o‘stirish, o‘rta va yuqori imkoniyatli o‘quvchining joyida to‘xtab qolmasligi uchun nima qilish kerak?” kabi bir qator hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar turibdi.

Mahoratli pedagoglarning tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rgangan holda barcha pedagoglarni bezovta qilayotgan bu kabi savollarga boshlang‘ich ta’limning maqsadi faqatgina aniq bilimlarni berish (ularni o‘zlashtirish, esga tushirish) emas, balki o‘quvchilarda shakllangan o‘quv faoliyati usullariga tayanib, mustaqil bilim olish va o‘qishga asoslangan shaxsga qadriyatli yondashuvni qo‘llash lozim degan xulosaga keldik. Turli yoshda bo‘lgani kabi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida

ham o‘ziga xos qadriyatlar tizimi shakllangan bo‘ladi. Ana shu qadriyatlarni o‘rganish, ta’lim faoliyati samarasi uchun ularga qanday munosabatda bo‘lishni bilish muhimdir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini bilish ularni o‘quv faoliyatiga to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ota-onalar bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar davomida o‘quvchilar nima bilan shug‘ullanishni xush ko‘rishi, ularda qanday qobiliyatlar mavjudligi, ularda qaysi ko‘nikmalar ustunligi, oilaviy munosabatlarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishlari, intilishlari hamda ularning hayotidagi muhim voqea, hodisa va munosabatlar tizimini chuqur o‘rganmay turib ta’lim sifatini ta’minlab bo‘maydi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individualligi, ular uchun muhim va qiziqarli bo‘lgan narsa, voqea, hodisalarni, o‘z shaxsiy qadr-qimmatini anglashga xizmat qiluvchi munosabatlarni tashkil etish va har tomonlama uyg‘un rivojlanishga yo‘naltirib borish shaxsiy qadriyatli yondashuvning asosini tashkil etadi.

Yurtimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, modernizasiyalash jarayoni talablari bo‘yicha ta’lim-tarbiya mazmunining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, moddiy-texnika bazasi hamda raqobatbardosh kadrlarni tarbiyaviy qadriyatlardan foydalanib tayyorlashga shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining qadriyatlar haqidagi qarashlaridan oliy pedagogik ta’lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun maqsadli tadqiqotlarni bajarish zarurati ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida[3] raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy va amaliy yutuqlarni amaliyotga tadbiq etishning samarali usullarini yaratish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish ta’lim-tarbiya jarayonidagi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Bu esa o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida Sharq mutafakkirlari merosini ommalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Dunyoda ta’lim sohasini Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlar asosida takomillashtirish istiqbolli omil bo‘lib, yoshlarning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishlarida bunday qadriyatlardan ta’lim tizimida foydalanish ustuvorlik qilmoqda. YUNESKO Bosh Assambleyasida[142] o‘rta asrlar Sharq allomalarining dunyo tamaddunida tutgan o‘rni, Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosi, ularning asarlarini muntazam o‘rganish, erishilgan natijalar monitoringini olib borish, shu orqali fan va ta’lim tizimini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Jahonning nufuzli oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilayotgan izlanishlarga Sharq mutafakkirlari asarlarida xalqlarning kelib chiqishi va etnopedagogik xususiyatlari, IX-XII asrlar Sharq mutafakkirlari asarlaridagi shaxsning ma’naviy-ma’rifiy fazilatlari haqidagi qarashlari, allomalarning ilmiy merosi mazmuni, jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini o‘rganish asosida ta’lim tizimini takomillashtirish vazifalari qo‘yilmoqda. Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy, fazoviy, matematik qarashlari, shaxs kamoloti va odob-axloq masalalari ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida shaxs ma’naviyati, oila va nikoh, farzand tarbiyasiga oid yondashuvlar, ajdodlar merosiga nisbatan yoshlarda hurmat hissini shakllantirishni ko‘rsatish mumkin.

Sharq mutafakkirlari qoldirgan qadriyatlar, ularning qarashlari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’naviyatini rivojlantirishda bir qator pedagogik yondashuvlarga amal qilish kerakligini ko‘rsatdi. Ular quyidagilar: tarbiya jarayonida o‘quvchi-yoshlar ma’naviyatini Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qadriyatlar asosida shakllantirishga qaratish; tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy hayot va kasbiy mehnat sirlarini egallash bilan uyg‘unlashtirish; hurmat qilish; o‘quvchilarni ma’naviy-madaniy yuksaltirish jarayoniga nisbatan talabchanlik, hushyorlik bilan yondashish; o‘quvchi-yoshlarda Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qadriyatlar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi,

yaxlitligiga erishish; oʻquvchilarda oʻzini-oʻzi tarbiyalash, sezgirlik, ogohlik koʻnikmalarini tarkib toptirish va hokazo.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... buyuk zotlarning qoldirgan bebaho merosini chuqur oʻrganish, ularning qadamjolarini obod qilish va xotirasini abadiylashtirish boʻyicha birgalikda qilgan ishlarimiz ham barchamizga mamnuniyat yetkazadi"[13].

Xalqimizning ming yillik tarixi, madaniyati, adabiyoti, san'ati mavjud boʻlib, u insonlarni ezgulikka, mehr-oqibatga, rahm-shafqatga, iymon-e'tiqodga oʻrgatib kelgan. Bu esa yaxshi urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz va qadriyatlarimizga asoslanadi. Zotan, har bir urf-odat va an'analar negizida milliy ruh, madaniyat, milliy ma'naviyat va qadr-qimmat kabi ulugʻ insoniy fazilatlar yotadi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma'naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlar yosh avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda hamon dolzarb boʻlib turibdi. Ajdodlarimiz merosi kelajak avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, ularga toʻgʻri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi, chunki, ularning asarlaridda inson odobi, axloqi, e'tiqodi, vijdoni, erkinligi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy va amaliy ahamiyati oʻz kuchini yoʻqotmagan. Ularning tarbiyaviy qadriyatlari, didaktik asarlari bugungi kunda ham yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ulkan hissa qoʻshib kelmoqda.

Ulugʻ mutafakkirlarimizning meroslari bebaho ma'naviy boylik – asl qadriyatlarimiz manbalaridir. Asrlar davomida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik kabi ijobiy fazilatlari bugun oʻquvchilar uchun oʻziga xos hayot maktabidir. Zardoʻshtiylarning muqaddas kitobi – "Avesto"da hamda buyuk ajdodlarimiz – Imom al Buxoriy, Imom at Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshgʻariy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovaddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo[61, 65, 91, 109, 145] asarlarida insonda yuksak axloqiy sifatlarni tarkib toptirishda milliy qadriyatlar masalasi asosiy

oʻrinni egallagan, mutfakkirlarning oʻlmas asarlari bizni avvalo, boy tariximiz, asl qadriyatlar va boshqa milliy-maʼnaviy meroslarimiz bilan yaqinlashtiradi. Bugungi oʻquvchilar ana shu milliy-maʼnaviy xazinalardan, qadriyatlardan istalgancha bahramand boʻlishadi.[137]

IX-XII asrlarda yashab ijod etgan allomalarimizning tarbiyaviy qadriyatlar mazmuni aks etgan asarlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Buyuk aql haqida soʻz” (“Kalom fi-l aql al-kabir”), “Quyi aql darajasi haqida soʻz” (“Kalom fi-l aql as-sagʻir”), “Ilmlarning kelib chiqishi va taʼrifi” (“Kitob fi ixso al-ulum va at-taʼrif”, qisqacha nomi “Ixso al-ulum”), “Musiqa haqida katta kitob” (“Kitob ul-musiqo al-kabir”), “Baxt-saodatga erishuv yoʻllari haqida risola” (“Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat”) asarlari; Abu Ali ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Tib qonunlari”, “Donishnoma”, An-Najot, Xay ibn Yakzon, Salomon va Ibsol, “Risolai fil-ishq” asarlari; Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih”, “Adab ul-mufrad”, “Tarix ul-kabir”, “Musnad ul-kabir”, “Kitobu asmoi sahoba”, “Tafsir ul-kabir”, “Sulosiyatul Buxoriy”, “Hadis un-Nabaviy”, “Tarix us-sagʻir”, “Zuafo us-sagʻir” asarlari; Imom Gʻazzoliyning “Ey farzand”, “Kimyoi saodat”, “Ihyo-ul-ulum id-din”, “Oxiratnoma” kabi asarlari shular jumlasidandir.[31, 61, 65, 91, 109, 137, 145]

Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qadriyatlari, boy pedagogik merosi, yosh avlod taʼlim-tarbiyasiga oid qarashlari, ayniqsa, odob-axloq, insof, diyonat, iymon, eʼtiqod, vijdon, mehnatsevarlik, ilmsevarlik, insoniylik xususidagi gʻoyalari barkamol shaxsni har tomonlama va uygʻun rivojlantirishda asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning taʼlimiy-axloqiy qarashlarida asosiy oʻrin tutgan ilmsevarlik, vatanparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-eʼtiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, hurfikrlilik kabi barkamol inson tarbiyasiga xos gʻoyalarni yosh avlod ongiga singdirish muhim didaktik qimmatga ega.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida inson oʻz tanasini toza va pokiza tutishi uning uzoq va sogʻlom hayot kechirishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi bayon qilingan. Mazkur asar yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni har tomonlama barkamol shaxs

sifatida shakllanishlariga yoʻnaltirilgan nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni taqdim etgan, uning uchun Kaykovusning ushbu asari barcha davrlarda ham oʻz qimmatini yoʻqotmagan. Shuningdek, bu asar har bir oʻqituvchi-murabbiylar uchun dasturul-amal boʻlib xizmat qiladi.

Kaykovus asarlarida yoshlarda mujassam boʻlishi lozim boʻlgan toʻgʻrisoʻzlik, insonparvarlik, muruvvatlilik, saxovatlilik, rostgoʻylik, vatanparvarlik, adolatparvarlik, sabr-qanoatlilik kabi shaxsiy sifatlar boʻlsagina, unday kishilar barkamol shaxs darajasiga yetishlari ta'kidlangan.

Shuningdek, "Qobusnoma"da "... agar biror kishi kajlikka (qingʻirlik, yolgʻonchilik) odat qilgan boʻlsa, uning yoniga bormagilki, u hargiz rost soʻzlamas. Nedinkim, bir daraxt egri boʻlsa, to uni chopib yonmaguncha u toʻgʻri boʻlmas" [91; 34-b.] deyiladi. Mazkur fikrlar tarbiyaviy harakterga ega boʻlib, oʻquvchining nima yaxshi-yu, nima yomonligini anglashiga, ijobiy individual qadriyatlar tizimini shakllantirishga oʻz vaqtida ahamiyat qaratish zarurligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning yoshlar tarbiyasiga oid ta'limotini oʻrganish jarayonida oʻquvchilarni kichik guruhlarga boʻlgan holda dars oʻtish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagi afzalliklar kuzatiladi: oʻquvchilar hamkorlikda ishlash, ulardagi bilish jarayonini faollashtirish, kirishimlilik, boshqalarning fikrini sabr bilan tinglashga oʻrgatiladilar; berilgan topshiriqlarni hamjihatlikda bajarish jarayonida ularda guruhdoshlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga moyillik paydo boʻladi; savollarni toʻgʻri va aniq shakllantirish, beradigan javoblarini esa asoslab berishni oʻrganadilar; ularning yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin boʻlgan imkoniyatlari, qobiliyatlarini roʻyobga chiqarishga yordam beradi; oʻquvchilarda ochiqlik, bilmaganlarini oʻz tengqurlari yoki oʻqituvchilardan soʻrab oʻrganish imkoniyati yaratiladi; oʻzaro hamkorlik, hamjihatlikda oʻquvchilarning bilim doiralari, mahoratlarini boyitish imkoniyati vujudga keltiriladi; tortinchoq oʻquvchilar oʻz bilimlari, mahoratlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega boʻladilar; iqtidorli oʻquvchilar oʻz qobiliyatlari, layoqatlarini namoyish qiladilar, doʻstlariga koʻmaklashish koʻnikmasiga ega boʻladilar; har bir oʻquvchiga oʻzini guruhning bir

bo‘lagi sifatida his qilish, bir-birlarining muvaffaqiyatlarini e’tirof etishga o‘rganadilar.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tishda quyidagi qoidalarga amal qilish zarur: 1) dars materiallarini egallash, berilgan topshiriqlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlashga odatlanib boradilar. Bunda o‘qituvchilar kuzatuvchi, ekspert rolini bajarishlari kerak; 2) kichik guruhlarni tuzishda hech bir narsa e’tibordan chetda qolmasligi zarur. Masalan, guruhlarda turlicha bilim darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar bir xil taqsimlanishi, kichik guruhning tarkibi (qizlar, yigitlar) aralash bo‘lishi hisobga olinishi kabilar; 3) guruhli va alohida o‘quvchini rag‘batlantirishga e’tibor qaratilishi lozim. Bunda kichik bir muvaffaqiyatni qo‘lga kiritgan o‘quvchini ham taqdirlash zarur.

Xo‘ja Abduxoliq G‘ijduvoniy ma’naviy ta’limotida umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritar ekanmiz, qadriyatlar faqat o‘tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi va kelajakdagi taraqqiyotga ham ulkan ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan madaniy, ma’naviy-axloqiy, falsafiy boyliklar majmui ekanligini tushunamiz. Bugun Sharq olamida bo‘lganidek, Xo‘jai Jahon Abduxoliq G‘ijduvoniy ta’limotida insonparvarlik g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. "Vasiyatnoma", "Odobi tariqat”, "Maqsad as solikin" va boshqa risola, asarlarida ulug‘ mutafakkir bu boradagi qimmatli fikrlarini bayon etgan. Uvaysiy asrorshunos Xo‘jai Jahon deyarli hamma risolalarida musulmonlarning vazifasi barcha insonlarga, ayniqsa, beva-bechoraga mehribonlik qilish, muhtojlarga har tomonlama ko‘maklashish, ojizu zaiflarga shavqatli bo‘lishdan iboratligini ta’kidlaydi. G‘ijduvoniy fikricha, haqiqiy taqvodor pok shaxs o‘z hayotida aqlli bo‘lishni, yashashida yaxshilik qilishni, xayrli a’molni sodir etishni o‘z oldiga asosiy ma’naviy-axloqiy maqsad qilib qo‘ymog‘i lozim. Ayniqsa, Abduxoliq G‘ijduvoniyning insonparvarlikka oid o‘gitlari shaxsga qadriyatli yondashuvga dahldor juda chuqur ma’noli, ahamiyatlidir. Bunda har bir inson olamda do‘stlarsiz yashay olmasligi, do‘stlari, yonidagi insonlar unga ma’naviy, ruhiy, axloqiy jihatdan har doim ta’sirda bo‘lishi, har bir inson odatda ijtimoiy sharoitta moslashishi,

jamiyatga moslashishda esa kishiga yonidagilarning munosabati alohida ahamiyatliligi kabi mazmunga ega. G‘ijduvoniyning insonparvarlik g‘oyalari jamiyatimizda insonlar o‘rtasidagi mehr-muhabbatni, xolis munosabatni paydo qilishga xizmat qiluvchi buyuk merosdir. Shuning uchun unga asoslanib ta’lim tarbiya ishlarini olib borish yaxshi natija beradi.[70]

Sharq mutafakkirlari asarlaridagi fikrlar teranligi, ma’nosining boyligi, bola ta’lim-tarbiyasi, inson hayoti manfaatlariga yaqinligi bilan zamon va jamiyat uchun muhim didaktik ahamiyatga ega. Ularning o‘quvchi hayoti, ta’lim-tarbiya jarayoniga oid qarashlari hayotiyligi bilan ilm-fan rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

1.3-§. Boshlang‘ich sinflarda shaxs xususiyatlari va qadriyatlarining o‘quv faoliyatidagi roli muammosining pedagogik-psixologik talqini

Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya jarayoni ob’yekti va sub’yekti bo‘lgan o‘quvchilarning insoniy xislatlari rivojlanishiga ta’siri beqiyos. Shuni nazarda tutgan holda o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol insonlar bo‘lib yetishishini ta’minlash masalasiga mamlakatimizda alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” Konsepsiyasi hozirgi vaqtga qadar jamiyatda rivojlangan qarashlarni o‘zgartirishni nazarga tutadi. Shunga ko‘ra, ijtimoiy ongda “o‘quvchi tarbiyasining mevasi keyin, maktabni bitirib, katta bo‘lganidan so‘ng namoyon bo‘ladi”, degan fikr bor. Ushbu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki hayotda o‘quvchi necha yoshda bo‘lsa, shu yoshga mos implisit xulq kutiladi. Kutish oqlansa, maqtov, oqlanmasa, tanqid aytiladi.[9]

Istiqlol inson qadri, uning manfaati, ehtiyojlari bilan aloqador masalalarni dolzarb qilib yubordi. Inson qadri, uning ijtimoiy sifatlari, jamiyatda olib borgan faoliyati, boshqalarga va yon-atrofga munosabati, kamolotga yetganligi, ijtimoiy xususiyatlarni o‘zlashtirganligi va ularni ma’naviy qiyofasida ko‘rsata olganligida ham ko‘rinadi. Q.Nazarov “O‘quvchining shaxsga aylanishi, o‘z qadrini va o‘zgalar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom

etadi. Umuman, uchinchi ming yillikda butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo‘llashga ehtiyoj kuchaydi. Taassufki, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davridan boshlab qadr va qadriyatni ustuvor bilganida, Yer yuzining zamonaviy manzarasi butunlay boshqacha tus olgan, kishilikni ekologik bo‘ronlar, urush xavfi va ma’naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo‘larmidi?”[109] deb ta’kidlagan.

Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining xulq-atvori birdaniga ijobiy yoki salbiy bo‘lib qolmaydi. Har bir yoshdagi o‘quvchining xulq-atvorida fazilat yoki illatning o‘sha yoshdagi darajasi ko‘rinadi. Har doim o‘quvchi bilib-bilmay ota-onasi, qarindoshlari yoki o‘qituvchini yo shod qilishi, yo ranjitishi mumkin. Shunday bo‘lmaganida yon-atrofdagilar o‘quvchilarga “xushmuomala o‘quvchi”, “qilig‘ingni to‘g‘irla”, “mehribon qizaloq”, “bezori o‘quvchi”, “ishyoqmas o‘quvchi”, “qo‘rqmas o‘quvchi”, degan baholarni berishmas edi. Bu esa o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi keyin emas, ayni paytdagi munosabatlarida, xulqida har kuni namoyon bo‘lishini isbotlaydi.

Ijtimoiy rol – bu insonning mavqei bilan belgilanib, jamiyat tomonidan kutiladigan, (ma’qullanadigan) xulq-atvor majmuasidir. Shundan kelib chiqib, o‘quvchilar hayotda har kuni turli ijtimoiy rollarni bajarishadi. Transportda– yo‘lovchi, uyda – o‘g‘il yo qiz, aka yoki uka; do‘konda biror narsa xaridiga borganda – xaridor; oshxonada – xo‘randa; qarindoshinikida – mehmon; mehmon kelganida – mezbon; maktabda – o‘quvchi rollarini bajaradi. Shu kabi rollarni qay darajada bajarishi uning ijtimoiy kompetensiyalariga aloqadorligi va shu kompetensiyalarning qanday o‘rgatilganiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nafaqat savodxonligini oshirish jarayonida o‘qish-yozish o‘rgatib qolmasdan, ularga yoshiga mos xulq kompetensiyaviy meyorlarini ham o‘rgatib borishi lozim. Bu meyorlar ob’yektiv asosga – o‘quvchilarning yosh jihatiga mos bo‘lishi va dinamik – oddiydan murakkabga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining vatanparvarligi, yuqori sinf o‘quvchisining mas’uliyatliligi, mehribonligi kabi

fazilat-kompetensiyalar oʻquvchiga qoʻshilib balogʻatga yetadi. Oʻquvchilar fazilatidan – kattalar fazilatiga aylanadi.

K.D.Ushinskiy oʻquv-taʼlim jarayonida oʻquvchilarga taqqoslashning toʻgʻriligini isbotlash uchun "Tarbiyachi oʻquvchini hech qachon boshqalarga taqqoslab maqtamasligi kerak, faqat uning oldingi yetishmovchiliklariga, yaxshirogʻi esa umuman yetishish mumkin boʻlgan barkamollikka taqqoslash mumkin"[136]. Oʻquvchilarni bir-biriga taqqoslash, birini ikkinchisiga oʻrnak qilib koʻrsatish pedagogik tarafdangina emas, maʼnaviy tarafdan ham oʻzini oqlamaydi. Bunday munosabat shaxsiy qadriyatli munosabatga zid. Har qanday kishiga uni kim bilandir solishtirishganda yoqmaydi, u hech kimga oʻxshamaslikni, betakror boʻlishni xohlaydi. Oʻquvchi ham deyarli shunday. Tarbiyaning insoniylik tomoni oʻquvchini bo holicha qabul qilish, uning shaxs sifatida oʻsib shakllanishiga imkoniyat yaratishdir. Oʻqituvchi tarafidan oʻquvchini baholashda yoʻl qoʻyiladigan xatolar oʻquv taʼlim jarayonining buzilishiga olib keladi. U shu tizimga tegishli boʻlgan kamchiliklarni kuchaytiradi va uning samarasini pasaytiradi. Taʼlim jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv shunisi bilan ahamiyatliki, bunda oʻquvchi oʻzini shaxs sifatida qabul qilinganligini sezadi, tengdoshlari bilan imkoniyatlari bilan tengligini anglaydi va buning taʼsirida oʻziga ishonchi rivojlanib boradi. Boshlangʻich sinfda oʻquvchining oʻziga ishonchini shakllantirish ularning bilim olish motivasiyasini yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

"Qadriyatga yoʻnaltirish" tushunchasi ijtimoiy psixologiyada va pedagogikada falsafiy tushuncha boʻlgan qadriyatlarga analog sifatida ishlatiladi. Jumladan, jamiyatda inson va uning hayoti eng oliy qadriyatdir. Inson boʻlmagan yerda biror narsa-hodisaning qadri toʻrisida gapirish bemaʼnilikdir. Shunga koʻra inson qadrini eʼzozlash, uning yashash sharoitini yaxshilash, savodxonligini takomillashtirish, sogʻligʻini saqlash, hayotini himoyalash shaxsiy qadriyatli yondashuvning asosiy yoʻnalishini tashkil etadi. Mamlakatimizda amallga oshirilayotgan tub oʻzgarishlarning, islohotlarning hammasi kishilar hayoti yaxshi boʻlishi, inson oʻzini chinakam mustaqil sezishi, oʻz mehnati natijasining, oʻz taqdirining, oʻz yurtining egasi boʻlishini taʼminlashga qaratilgan. Shu nuqtai

nazardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oishirishda shaxsiy qadriyatli yondashuvni bu jarayonlarning asosini tashkil qiladi, deb hisoblash mumkin.

Aslida “qadriyat” tushunchasi madaniy rivojlanishning ma’lum bir bosqichidagi ijtimoiy ustuvorliklarga muvofiq sifat standarti va ideal vazifasini bajaradigan ob’yektlar, hodisalar, toifalar va g‘oyalarni belgilashda ishlatiladi. “Qadriyat” va “Qadriyat yo‘nalishi” tushunchalari falsafa, sosiologiya, psixologiya, pedagogika kabi fanlarda uchraydi.[63]

Ijtimoiy fanlar sirasiga kiruvchi aksiologiyada (yunoncha “axia” – *qadriyat*) qadriyat, qadriyat turlari va qadriyatli yondashuv kabi tushunchalar tadqiq etiladi. Qadriyatlar tushunchasi falsafiy tushuncha sifatida pedagogikada ham keng o‘rganiladi. So‘nggi yillarda shaxs ma’naviy-axloqiy qarashlari va tarbiyasiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida moddiy va ma’nviy qadriyatlar tizimi, ularning iyerarxiyasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Shu sababli ham yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga shaxsiy-qadriyatli yondashuv muammosi muhim pedagogik masala hisoblanadi.

Etimologik manbalarda “qadriyat” tushunchasi inson uchun qadrli, qimmatli bo‘lgan moddiy predmetlar va ma’naviy tushunchalarni anglatishi qayd etiladi. Ushbu tushunchani birinchi marta fanga kiritgan I.Kant qadriyatlarni erkinlik va zarurat o‘rtasidagi qarama-qarshilik asnosida yuzaga kelishini ta’kidlaydi.

Zaruratlar dunyosi go‘yo mavjud bo‘lganlar dunyosini to‘ldiradi, shuning uchun yaxlitlik va tizim uchun ishonchli, shu tufayli I.Kant uni harakatning shartli tizimiga kiritgan.

Rossiyada faylasuf N.A.Berdyayev, “Qadriyat har qanday narsaning mulki emas, balki uning mohiyati va ayni paytda ob’yektning to‘liq mavjud bo‘lishining shartidir”, deb ta’kidlaydi, zotan, “Qadriyat – bu sifat”[69]. “Qadriyatlar – bu ma’lum bir jamiyat yoki sinf odamlari va shaxsga ularning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish vositasi sifatida zarur bo‘lgan ob’yekt, hodisalar va ulardagi xususiyatlarning g‘oya va motivlar normasi, maqsad va ideal darajasidagi mohiyati.”[64].

V.A.Slastenin insonlarning qadriyatlarga munosabatini va aloqadorligini quyidagicha ifodalaydi: “ob’yektning qadriyati uning ehtiyojlarini qondirish uchun ob’yektning ahamiyatini anglash

vositasi sifatida ishlaydigan shaxs tomonidan uni baholash jarayonida aniqlanadi".

Adabiyolarni tahlil qilganda, *qadriyatlar* - shaxs uchun muhim bo'lgan, ma'lum bir jamiyatdagi shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini to'liq qondiradigan ba'zi bir aqliy shakllanishlar tushuniladi. "Qadriyat" (D.A.Leont'yev) fanlararo konsepsiyasi va ob'yektiv ehtiyojning tug'ilish mexanizmi tushunchalariga rioya qilish[99].

Shunday qilib, pedagogik-psixologik lug'atlarda qadriyatlar mavjudligining uchta shakli haqida fikrlar mavjud:

- birinchidan, qadriyatlar insonlar tomomnidan ijtimoiy muhitda yaratilgan ideal tarzida ifodalanadi. Bunda qadriyat inson ijtimoiy faoliyati davomida ongi tomonidan ijtimoiy hayotga aloqador xususiyatlarning jamlanmasi sifatida ifodalanadi. Qadriyatlarning bunday turi umuminsoniy (bashariyatga aloqador), abadiy (barcha davrlarga aloqador) va tarixiy (ma'lum bir tarixiy davrga aloqador) bo'lishi mumkin;

- ikkinchidan, qadriyat inson faoliyatida ob'yektivlashuviga ko'ra moddiy, ma'naviy yoki ijtimoiy harakatlar ideallari ko'rinishida bo'lishi mumkin;

- uchinchidan, har bir insonning shaxsiy hayotiy tajribasida sinovdan o'tgan ijtimoiy qadriyatlar shaxsiy qadriyatlar shakliga o'tishi mumkin.

Rus psixolog va pedagog olimlari tomonidan yigirmanchi asrning 60-yillarida "qadriyat" atamasi ishlatila boshlangan bo'lib, ongni nafaqat borliqning aksi sifatida, balki unga nisbatan shaxsiy ta'sir va munosabat bildira olish tarzida ta'riflangan. Shuningdek, qadriyat tushunchasini talqin qilishda narsa, hodisalarni insonga ta'sir qiladigan, uning xatti-harakatlarini belgilaydigan ehtiyojlar va qadriyatlar shaklida taqsimlashdan iborat ekanligi e'tirof etilgan.

V.N.Myasiщyev o'zining psixologik munosabatlar konsepsiyasida qadriyat yo'nalishlari muammosini ko'rib chiqadi. U insonning munosabatini "tajribaga asoslangan ongli, tanlangan, uning xatti-harakatlari, reaksiyalari va tajribalarida ifodalangan ob'yektiv voqelikning turli jihatlari bilan psixologik aloqasi" [41; 59-b.] deb tushunadi.

I.S.Konning ta’kidlashicha: “Ba’zi bir ijtimoiy qadriyatga yo‘naltirilgan yo‘nalishlar qadriyat yo‘nalishlari deb ataladi”.[128] F.Y.Vasilyuk tajribalarni aqliy muvozanatni tiklashga, mavjudotning yo‘qolgan ma’nosini, bir so‘z bilan aytganda, “ma’no ishlab chiqarishda” tiklashga qaratilgan faoliyatning maxsus shakli sifatida ko‘rib chiqib, qadriyat yo‘nalishlari faoliyatidagi tajribalarning roliga e’tiborni qaratadi.[90]

Falsafiy manbalarda qadriyat kognitiv komponent, hissiy komponent va xulq-atvorli komponentdan iborat murakkab tizim sifatida ifodalanadi. Kognitiv komponent insonning bilish jarayoni bilan bog‘liq, hissiy komponent jarayonni hissiy baholash bilan bog‘liq bo‘lsa, xulq-atvorli komponent insonning xulq-atvoridagi qadriyat yondashuv bilan bog‘liqligini ifodalaydi.

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda qadriyatli yondashuv shaxsning faoliyatini, turli vaziyatlarda ongli ravishda munosabat bildirishga tayyorlash, motivasiya hosil qilishning asosi sifatida qaraladi. Qadriyatli yondashuv shaxs ongida hayotiy jarayonga doir yirik maqsadlarga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan shaxsiy qadriyatlariga tayaniladigan faoliyat turi hisoblanadi.

Qadriyat yo‘nalishlari insondagi qadriyatli yondashuvning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, jarayonlar integrasiyasi amalga oshishini anglatadi. Bu integrasiyalashuv jarayoni jamiyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning turli shakl va darajalarini; insonni o‘rab turgan tashqi muhit mazmuni, uning tarixi, zamonaviy ko‘rinishi va kelajagini aks ettirishning o‘ziga xos shakli tarzida ifodalanadi.

Sosiologiyada esa qadriyatlar yo‘nalishlari shaxslararo munosabat, har bir insonning hayotiy pozisiyasi sifatida talqin etiladi. Bu o‘z navbatida har bir insonning hayotiy pozisiyasini hamda ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirganlik darajasini ko‘rsatadi.

Taniqli pedagog, olim D.Feldshteynning “O‘zgarayotgan dunyoda o‘zgarayotgan o‘quvchi: yangi maktabning psixologik-pedagogik muammolari” nomli asarida: yosh avlodning qadriyat yo‘nalishi bo‘yicha moddiy-pragmatik yondashuvga o‘tish jarayonida vijdonlilik, adolat, burch, odob, mas’uliyat, beparvolik,

mehnatsevarlik, yoshi kattalarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarida salbiy jihatlari koʻpayib borish havfi kuchli ekani ta'kidlanadi.[44]

Pedagogik nuqtai nazardan esa kadriyatlar muammosiga T.K.Axayan, Z.I.Vasilyeva, J.Gudechek, M.Y.Duranova, M.G.Kazakino, A.V.Kiryakovalar munosabat bildirganlar [93,96]. Har bir pedagog olim psixologik tushunchalariga koʻra qadriyat yoʻnalishlarini tadqiq etishga harakat qilganlar. Shuningdek, bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik maqsadga erishilganligini baholashda natijalarning maqsadga muvofiqligi inobatga olinadi. Bunday qarashlar shaxslararo qadriyatli munosabatlar, ijtimoiy qadriyatlarni yaratish va ularni ommalashtirish uchun asosdir.

Oʻqituvchilar uchun insonning qadriyat yoʻnalishlari uning muhim psixologik xususiyatlarini birlashtiradigan asosiy tarkibiy qismidir. "Bu shaxsiyatning atrofdagi voqeyilik bilan munosabatlarining xususiyatlarini va ma'lum darajada uning xatti-harakatlarining xususiyatlarini belgilaydigan qadriyat yoʻnalishlari".[94] Demak, shaxsning shakllanishi va rivojlanishidagi oʻziga xos xususiyatlarni oʻrganayotganda, avvalambor, ulardagi qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Psixologlardan L.I.Bojovich, I.V.Dubrovina, B.V.Zeygarnik, G.M.Krasnevskaya, Y.A.Serebryakovalarning maktabgacha va kichik maktab yoshida talabgorlik darajasining shakllanishi boʻyicha olib borgan tadqiqotlari ularning faoliyatida muvaffaqiyatsizliklar jamoada ob'yektiv omadsizlikni yuzaga keltirib, tengdoshlari bilan muloqotda ehtiyojlarni qondirishga toʻsqinlik qilishini isbotlagan.[130]

Qadriyatlar – psixologik manbalarda va shaxs xulqini boshqarishga doir psixologik konsepsiyani yaratishda asosiy omil sifatida oʻrganiladi. Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda qadriyatlar shaxsning psixologik moslashuvi va oʻz-oʻzini boshqarish jarayonlari muammosi sifatida qaraladi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning bilimlarni oʻzlashtirish darajalari ularda amal qiladigan ijtimoiy qadriyatlarga chambarchas bogʻliq boʻladi. Ular oʻz hayotiy rejalarini qadriyatlarga tayangan holda tuzadilar.

Boshlang‘ich sinflarda qadriyatlar tizimi o‘quvchining atrof olamga, boshqa odamlarga, o‘z-o‘ziga munosabati shakllanishining asosini tashkil etadi. Shuningdek, o‘quvchi shaxsi va dunyoqarashining shakllanishida ularning ehtiyoji va motivasion jihati asos vazifasini o‘taydi. Shaxsda qadriyatlar tizimi o‘z-o‘zini anglash boshlanganda davrdanoq juda erta yoshdan boshlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatida o‘quvchining ichki ehtiyojlari, motivlari, bilimlarni egallashi, bilim va ko‘nikmalari, qadriyatlariga munosabat alohida ahamiyatga egadir.

Faoliyat va xulq-atvorga motivasion va qadriyatli yoshdashish masalalari taniqli psixolog V.G.Aseyeva, L.A.Bloxina, A.N.Leontyeva, V.N.Myasiщyev, A.N.Piyanzina, S.L.Rubinshteynlarning tadqiqotlari predmeti bo‘lib xizmat qilgan. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarda qadriyatlarni shakllantirishning bir qator mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

O‘yin faoliyatining yetakchiligidan o‘quv-o‘yin faoliyatiga o‘tishda, ancha anglanilgan, faoliyatda anglanilganlikning rivoji bilan bog‘liq, shaxsiy yangilanishlarning shakllanishi ro‘y beradi. Kichik maktab yoshida bola intellektual jihatdan intensiv rivojlanadi. Uning intellekti boshqa psixik jarayonlar rivojiga xizmat qiladi va anglash, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining ixtiyoriy amalga oshishini ta’minlaydi. Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchining psixik jihatdan rivojlanish ko‘rsatkichlariga ham juda katta talablar qo‘ya boshlaydi. Bu esa o‘z navbatida ulardagi qadriyatlar tizimining mazmunan takomillashishiga olib keladi.

Demak, kichik maktab yoshidagi bolada qadriyatlar tizimining shakllanish jarayoni ob’yektiv va sub’yektiv omillar ta’siri ostida amalga oshadi. Ob’yektiv omillar sirasiga o‘quv jarayoniga oid moddiy-texnik baza, yaqin atrofidagi olamning holati, sub’yektiv omillarga esa, o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, ularning motivlari va xususiyatlarining o‘ziga xosligi kabilar kiradi. Sub’yektiv omillar esa bevosita o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari, qiziqishlari, yo‘nalganligi kabilar bilan bog‘liq holda rivojlanadi.

Pedagogik kuzatishlarga ko‘ra, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davrining oxirlariga kelib

birmuncha pasayadi. Oʻquv faoliyatiga qiziqish 1-2-sinflarda koʻtarilib, 3-4-sinflarda pasayadi. Oʻquv faoliyatiga qiziqishning pasayishida oʻqituvchining tayyor materialni bayon etishi va oʻquvchilarning yodlab olishlari ustanovkasi ustunlik qiladi va oʻquvchilarning faolliklari taqlid qilish xarakterida boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga ushbu davrda matnni oʻqish va uni qayta hikoya qilib berish, darslik yoki doskadan mashqni koʻchirib yozish, qoidalarni, she'rlarni yod olish kabi talablar qoʻyiladi. Ammo bola bu mashqlardan koʻra erkin va mustaqil faoliyat yuritishni, tabiatni erkin kuzatishni, rasm chizish yoki narsalar yasashni yaxshi koʻradi. Boshqacha aytganda, kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar tashabbus va mustaqillik imkoniyati bor boʻlgan ishlarga koʻproq qiziqish bildiradilar. V.A.Suxomlinskiy kichik maktab yoshida oʻqishga qiziqishning susayishi sabablaridan biri sifatida oʻqituvchi tomonidan past bahoning koʻp qoʻyilishi, bu esa oʻquvchida oʻqishga nisbatan qiziqishning pasayishi va oʻz imkoniyatlariga nisbatan boʻlgan ishonchning kamayishida deb biladi.[131]

Yuqoridagi holat tahlilidan boshlangʻich sinf oʻquvchilarida qadriyatlar tizimining shakllanishi koʻp jihatdan boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining qadriyatlariga bogʻliq boʻlishi ayon boʻlmoqda. Demak, oʻqituvchi oʻquvchilarni kommunikativ jarayonga, tabiatga va san'at olamiga olib kirish, insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, ilm-fan yutuqlari bilan tanishtirish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Oʻqituvchining ta'lim jarayoniga qadriyatli yondashuvi ushbu jarayonda erishiladigan natijalarda oʻz ifodasini topadi. Demak, boshlangʻich sinf oʻqituvchilari tomonidan amalga qoʻllaniladigan qadriyatlar tizimini eksperimental tadqiq etish zamonaviy boshlangʻich sinf oʻqituvchisining ma'naviy qiyofasini oʻrganish, pedagogik qadriyatlar tizimini tasniflash imkonini beradi.

Olimlardan V.A.Slastenin, A.A.Grisanov, V.A.Yadov, Y.A.Rudenko kabilar oʻz tadqiqotlarida boshlangʻich sinf oʻqituvchilari qadriyatlar tizimining oʻquvchilarda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ta'sirini oʻrganganlar.[28]

V.A.Slastenin fikriga koʻra, qadriyat – inson va jamiyat uchun ijobiy ahamiyatga molik boʻlgan voqea-hodisalarning ashyoviy

xususiyati, insonlarning psixologik xususiyatlari ijtimoiy hayotiy hodisadir.[28; 260-b.].

A.A.Grisanovning ta'kidlashicha, qadriyatlar majmui ma'lum darajada inson xulq-atvorining yo'nalganligini oldindan ko'rsatib beruvchi faoliyat sub'yektining yo'l-yo'riqlarini rivojlantiradi. Qadriyatlar – shaxs tuzilishidagi individning amaliy tajribalari, ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv asosida rivojlangan va hosil bo'lgan ahamiyatli narsalarni (belgilangan kishiga xos) ahamiyatsizlaridan (xos bo'lmagan) farqlash, hayotiy maqsadlari doirasiga mos yoki mos emasligini anglash orqali ularni amalga oshirishning ma'qul usullarini ajratuvchi ichki tuzilishi elementlaridir.[28; 260-b.].

V.A.Yadov pedagogik faoliyatdagi mustaqil qadriyatlarni o'z atrofida aynan hayotiy qiziqishlarini kengaytirishga qodir fikrlar va hissiyotlardan iborat iyerarxik tuzilma sifatidagi inson ongining asosi deb hisoblaydi. Shuning uchun o'qituvchilarning shaxsiy-professional qadriyatlari rivojlanishi o'zini baholashiga ta'sir ko'rsatuvchi, uning o'zini o'zi shakllantirish va o'zini ko'rsata bilish kabi oliy ijtimoiy ehtiyojlariga javob beruvchi, pedagog faolligining bir mezoni sifatida qaraladi. Bundan tashqari, o'qituvchining faoliyatida qadriyatlar ijtimoiy yetuklik, fuqarolik mas'uliyati, professional ideallari va insonparvarlikning omillari sifatida qaraladi.[28; 260-b.].

Y.A.Rudenkoning yozishicha, tarbiyadagi eng oliy qadriyat – bu o'quvchi shaxsidir. Bu qadriyat pedagogning ongiga, qadriyatlari tizimiga singishi uchun pedagogning o'zini, uning fikrlash tarzini va xulq-atvorini muvofiqlashtirish lozim. Bunda ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, o'quv faoliyatiga eng zamonaviy texnik vositalar va yangi eksperimental dasturlarni kiritish bilan emas, balki yangicha fikrlashning paydo bo'lishi bilan bog'liq.[28; 261-b.]

Taniqli pedagog Sh.A.Amonashvilining butun hayoti klassik insonparvarlik pedagogikasi g'oyasini rivojlantirishga, pedagogik ongda "ruhiy gumanizm" tushunchasini asoslashga bag'ishlandi. U o'zining ta'lim-tarbiyaga qaratilgan asarlarida 6 yoshli tayyorlov guruhidagi maktab o'quvchilari bilan ishlash bo'yicha ish tajribalarini bayon etgan. Unda Sh.A.Amonashvili pedagogik

faoliyati natijalari, eng kichik yoshdagi oʻquvchi shaxsining shakllanishi jarayonini kuzatish orqali olgan ma’lumotlarini keltirgan. Unda bu yosh guruhdagi oʻquvchilarning psixologik xususiyatlari, 6 yoshli oʻquvchilarni oʻqitishning mazmuni, spesifikasi, shakl va metodlarini tahlil qilgan[26; 8-9-b.].

Oʻqituvchilar tomonidan qadriyatlar yoʻnalishlari jamiyatning ob’yektiv qadriyatlariga boʻlgan munosabat sifatida aniqlanadi, ularning xabardorligi va tajribasida hozirgi xatti-harakatga turtki beradigan va kelajakni dasturlaydigan ehtiyojlar sifatida ifodalanadi. Binobarin, qadriyat yoʻnalishlarining bilim (qadriyatlarni anglash); bu qadriyatni ehtiyoj sifatida boshdan kechirish; haqiqiy xulq-atvor uchun motivasiya; kelajakdagi xatti-harakatni bashorat qilish kabi elementlari ajralib turadi.

Pedagogika sohasida boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻquv faoliyatini tashkil etish muammolari koʻpchilik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Y.A.Nikolayevaning tadqiqqotlari “Shaxsga yoʻnaltirilgan ta’lim asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilari orfografik savodxonligini oshirish”ga bagʻishlangan. Tadqiqotchi Ye.A.Nikolayeva rus tili darslarida oʻquvchining orfografik savodxonligini oʻstirishda shaxsga yoʻnaltirilgan ta’limni qoʻllash boshlangʻich sinf oʻquvchilarining rus tili sistematikasi va uni takomillashtirish, shaxsiy til oʻrganishda oʻzini rivojlantirishini ta’minlashini koʻrsatib bergan.[37; 6-b.]

Darhaqiqat, boshlangʻich sinf oʻquvchilari ta’lim faoliyatini tashkil etish va savodini oʻstirish hamda shaxsiy-qadriyatli yondashuvni qoʻllashda ularning soʻz boyligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchi sinfga qadam qoʻyayotgan oʻquvchining soʻz zahirasi fikrlarini yetkaza oladigan holatda boʻladi. 7 yoshli me’yorda rivojlanayotgan oʻquvchi oʻz nutqida 3000-7000 soʻzlarni qoʻllay oladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari lugʻat boyligining koʻpayishida ta’lim maskanidagi oʻqish jarayoni, ayniqsa savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Oʻquvchi oʻqishga kelishidan avval oʻzi qay tarzda soʻzlayotgani haqida oʻylamasdan, oʻzining nutqi orqali faqat soʻzlashish orqali foydala oladi. Maktabga kelgan oʻquvchi soʻzlashayotgan nutqi oʻqitilayotgan va oʻrganilayotgan fan sifatida oʻrin egallaydi.

Ta’lim maskanida bilim olayotgan o‘quvchi ona tilining imlosi bilan o‘rganishi jarayonida, gaplarni grammatika qoidalari asosida to‘g‘ri tuzish, ravon bayon qilishni o‘rganib boradi. Ona tili savodxonligini o‘rganish vaqtida o‘quvchi gapning fonetik holati o‘rganiladi, nutqning morfologik jihati rivojlanadi, sintaksis tuzilishi takomillashib boradi. O‘quvchi nutqining bu sifatlari grammatikani to‘g‘ri o‘rganilishigina emas, balki shu bilan birga, maktabda o‘qitilayotgan boshqa fanlarning ta’siri ostida ham o‘sadi. Maktabda o‘qitilayotgan fanlarni o‘rganish va shu fanlar bilan shug‘ullanish jarayonida o‘quvchi nutqining lug‘at zaxirasi boyiydi.

Tadqiqotchi G.Mamatova o‘zining boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlarida adabiy tushunchalar to‘g‘risida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’lumot berish bilan bir qatorda badiiy asar tilini o‘rganish bo‘yicha ham fiklar bildirgan. Uning fikricha, badiiy asar tilini o‘rganish o‘quvchilar nutqini adabiy atamalar, tasviriy vositalar, badiiy til elementlari bilan boyitish demakdir.[103; 12-b.]

O‘quvchi maktabga kelgan birinchi kunlaridan ma’nosi tushunarsiz so‘zlarga duch keladi. Masalan: “Alifbe” darsligidagi “*omil, manbai, kamolot, murod, asil, to‘kinlik, masal, himmatli, himmat, idrok, iqbol, to‘kinlik, jasorat, jumboq, bo‘tam, mash’al, sabot, davron*” so‘zlarining ma’nosini o‘qituvchi izohlarisiz birinchi sinf o‘quvchilarining anglamoqlari mushkul. Shuning uchun so‘z ma’nosi ustida ishlash savod o‘rgatish davridan boshlanadi. Savod o‘rgatish darslarida o‘quvchi bilimlarni tayyor holda o‘zlashtiruvchiga aylanib qolmasligi, dars davomida qo‘llangan so‘zlarning ma’nosini bilish-bilmasligini o‘ylab ko‘rish lozim, zero, so‘z ma’nosiga e’tibor berish ko‘nikmasini shakllantirish fikrni to‘liq ifoda etish uchun zamin yaratadi. Bu davrda so‘zlarning ma’nosi bilan tanishtirish suhbat va tushuntirish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi suhbat jarayonida ma’nosi tushunarsiz so‘zni so‘z birikmasi va gap ichida qo‘llab, rasmlar yoki narsa-predmetlarni namoyish qilish, turli xatti-harakatlar, o‘yinlar vositasida so‘zning ma’nodoshini keltirish orqali izohlaydi.

Psixolog E.G‘.G‘oziyev boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotidagi muhim, qadrli narsa, voqea va hodisalar xususida to‘xtalib, “Kichik maktab o‘quvchilarining muhim xususiyatlaridan biri – bu undagi o‘ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Mazkur ehtiyoj o‘z mohiyati bilan muayyan tartibdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilgan bo‘lmasdan, balki faqat o‘quvchi bo‘lish istagining aynan o‘zidan iboratdir. Bu ehtiyoj zamirida o‘qishning tashqi alomatlari, chunonchi, forma kiyish xohishi, o‘z shaxsiy portfeliga, dars tayyorlash burchagiga, kitob javoniga ega bo‘lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg‘usi kabilar yotadi, xolos. Bundan tashqari, bilimlar kunidagi shodiyona ayyom, o‘quvchilar safiga qabul qilishlik lavhasi, maktab ma’muriyati va o‘qituvchilarning ularga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o‘quvchilarining tabriklari birinchi sinf sub’yektlari his-tuyg‘usiga ilk ta’sir etadi. Sinf a’zolari bilan qatorlashib, saf tortib yurishlar, yoppasiga o‘yin faoliyatida qatnashish va oshxonaga birga borish, qabul qilib olgan o‘qituvchilarning o‘gitlari ham ularni o‘ziga rom qiladi.”[155; 140-141-b.]

Xalq og‘zaki ijodi asarlari tahlili orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish tamoyillarni tadqiq etgan pedagog G.A.Xolboyeva o‘z tadqiqotlarida iinsoniylik mezoni – insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya’ni odamlar bilan o‘zaro hurmatda, yaxshi munosabatda bo‘lishini, Vatani va eliga sodiqlikni, mehnatsevarlikni, diyonatlilikni, odobni va shu kabi qator ijobiy fazilatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Xalqimiz o‘quvchilarning yoshligidanoq ana shunday go‘zal fazilatlarni egallashlariga jiddiy e’tibor karatgan. Afsona-yu rivoyatlar, dostonlar, qo‘shiqlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar orqali insoniy fazilatlar ulug‘langan va keng targ‘ib qilingan. Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarda insoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda, qabixlik, xiyonatkorlik, razillik kabi illatlardan nafratlanish hissini uyg‘otishga xizmat qiladi.[45; 14-b.]

O‘quv faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchisida bilish jarayonlari hamda shaxs xususiyatlarini yuqori darajada takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yetarlicha yaratilishi lozim. Kichik maktab yoshi davrida o‘quvchi shaxsining shakllanishi davom etadi. O‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati psixik xususiyatlarining

rivojlanishi va shaxsining shakllanishida to‘liq ijobiy asos bo‘ladi. Buning natijasida o‘quvchi o‘zi oilasi, o‘qiyotgan sinfi va boshqa jamoalardagi o‘z o‘rnini tushunib yetganini ko‘rish mumkin.

Yangi faoliyatga o‘tish o‘quvchining o‘z asosiy faoliyatiga yangi munosabatni paydo qiladi. Unda burch hissi o‘sa boshlaydi. O‘quvchi o‘qish muhimligini va bu uning burchi ekanini, qo‘yilgan talablar bajarilishi lozimligini tushunib yetadi. O‘zini haqiqiy o‘quvchidek his qilgan holda unda yaxshi o‘qishga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning axloqiy ongi 1- va 4-sinfdagi o‘qish mobaynida muhim o‘zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi hamda o‘quvchi o‘zini o‘zi anglay boshlaydi. U o‘ziga xos bo‘lgan yaxshi-yomon xususiyatlarni bilmasa-da, bilish motivlari quyidagicha o‘zgarib boradi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishlari alohida bir faktlarga qiziqishdan, qonuniyat va prinsiplarga qiziqishga aylanib boradi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar boshlang‘ich ta’limning o‘rtalariga borib bilimlarni o‘zlashtirish yo‘llariga qiziqish yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatib berdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davrida mustaqil ta’lim motivlari ham yuzaga kelib, lekin ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olishning qo‘shimcha manbalariga va qo‘shimcha kitoblarni vaqti-vaqgi bilan o‘qishga qiziqish bilan namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelganida differensial bo‘lmagan umumiy tushunishdan o‘qish va o‘rganishning zarurligi sabablarini chuqur anglashga, “o‘zi uchun o‘qish mazmunini anglab yetishga tomon o‘zgarib, ijtimoiy motivlarning amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo‘ladi. Bu yoshdagi vaziyatli ijtimoiy motivlar o‘qituvchining qo‘llab-kuvvatlashiga nisbatan bo‘lgan ehtiyoji hisoblanadi.

O‘quvchining ustoziga bo‘lgan munosabati yomon baho olib xafa bo‘lgan taqdirda ham ijobiy va unga ishonch hissi saqlanib qolaveradi. Unda o‘rtoqlari va sinfdoshlari o‘rtasida mavqeli bir o‘rinni egallashga harakat yuzaga kelib, asta-sekinlik bilan o‘rtoqlari fikrlariga asoslanish paydo bo‘ladi.

O‘quv faoliyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda o‘qish jarayonida ma’lum muvaffaqiyatlarga erishish ehtiyojini

qondirishga, shuningdek, o‘z tengqurlari orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga shart-sharoit yaratadi. Aynan ana shu o‘rin yoki mavqega erishish uchun ham o‘quvchi yaxshi o‘qishga harakat qiladi. Bu yoshdagi o‘quvchilar doimiy ravishda o‘zlari erishgan yutuqlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan taqqoslaydi. Ular uchun har doim oldinda bo‘lish nihoyatda muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilik davrida o‘quvchilardagi bellashish motivi tabiiy psixologik zaruriyat hisoblanib, bu motiv ularda kuchli hissiy va irodaviy zo‘riqishni yuklaydi. Bu ehtiyojlar o‘quvchida maktabgacha yosh davridan boshlab vujudga kela boshlaydi va boshlang‘ich sinf o‘quvchilik hamda o‘smirlik davrida bu hususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

R.A.Mavlyanova, N.X.Raxmankulovalar tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, maktab ish faoliyatida ko‘pincha o‘quvchilarni bir-birlariga taqqoslanadi, birining o‘qishidagi muvafaqqiyatlari ikkinchisiga uni uyaltirilib maqtaladi “Qara, u qanday yaxshi o‘qiydi”, soddadillik bilan ikkinchisi ham yaxshi harakat qilishiga ishoniladi.

Tadqiqotchilar “O‘quvchilarni bir-biriga taqqoslash, solishtirish maqsadga muvofiqmi?”, “Bunday taqqoslash yaxshi o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchini rag‘batlantira oladimi?” kabi savollarga javob olish uchun psixologik test o‘tkazib, o‘quv yili davomida sinfda o‘quvchini faqat o‘zi bilan taqqoslangan, o‘qituvchi faqat uning o‘ziga yutuqlari, bilim saviyasi haqida ma’lumot bergan. Boshqa sinfda esa, bir o‘quvchining yutuqlari unga imkoniyatlari bo‘yicha teng boshqalarning o‘qish natijalari bilan taqqoslangan, uchinchisida esa umuman taqqoslash bo‘lmagan. O‘quv yili oxirida eng yaxshi yutuqlar bir xil imkoniyatli, lekin o‘qishda turli munosabatda bo‘lganligi sababli turli natijalarga erishgan o‘quvchilarni taqqoslangan sinfda bo‘lgan. Taqqoslash o‘quvchini siqib qo‘ymasdan, balki unga yordam bergan. O‘quvchi o‘zi bilan taqqoslangan sinfda ham yaxshi natijalar qayd etilgan. Yaxshi o‘zlashtiruvchi va yomon o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar taqqoslangan sinfda esa umuman boshqacha natija kuzatilgan. O‘tkazilgan tajriba olimlarni quyidagi xulosaga keltirgan: “O‘quvchilarni bir-biriga shunday taqqoslash kerakki, birini maqtash yoki ikkinchisini kamsitish emas, balki

oʻquvchilarni yaxshiroq natijaga erishishga, shaxsiyatini rivojlantirishga undash, ragʻbatlantirish kerak” [102; 164-165-b.].

Boshlangʻich sinf oʻquvchilar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, oʻz-oʻziga baho berib boshlaydi. Oʻquvchining oʻz-oʻziga baho berishi turli faoliyatlaridagi yutuqlariga ham bogʻliq boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻz-oʻziga baho berishi har xil – yuqori, adekvat – mos yoki past darajada boʻlishi mumkin. Bu yoshdagi oʻquvchilarda mavjud hislatlar - ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabilar ularni shaxs sifatida rivojlantirishga yetarli sharoit yaratadi. Boshlangʻich ta’lim jarayonida boshqarishdan oʻzi-oʻzini boshqarishga oʻtish nihoyatda muhimd hisoblanadi.

Mutaxassislarning e’tirof etishlariga koʻra, boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun yetakchi hisoblangan oʻquv faoliyatidan tashqari oʻyin, muloqot va mehnat faoliyatlarii ham oʻquvchi shaxsi rivojiga bevosita ta’sir koʻrsatuvchi omillar hisoblanadi. Bu faoliyatlar asosida yutuqlarga erishish motivlari bilan bogʻliq boʻlgan shaxs hususiyatlari shakllana boshlaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilik davrini oʻquvchining turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarning yuzaga kelish va mustahkamlanish davri deyish mumkin. Bu davrda yutuqlarga erishish motivlari tarkib topa boshlaydi. Bu yoshdagi oʻquvchilar soatlab yolgʻiz holda sevimli mashgʻulotlari bilan shugʻullanishlari mumkin va shular asosida ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilik davridan boshlab oʻquvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e’tibor beriladi. Bu davr ichida oʻquvchilarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda boʻlish asoslari tarkib topa boshlaydi. Ularda mehnatga havas uygʻonadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar tarkib topadi. Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarda mehnatsevarlik, asosan, oʻqish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari zarur boʻlgan harakat va amallarni darhol oʻzlashtirib va egallab ololmasdan, koʻproq

ortiqcha va chalkash harakatlar qiladilar. Mehnat jarayonidagi turlicha ish harakatlarini, chunonchi: tikish, to‘qish, kiyish yoki taxtalarni randalash kabi harakatlarni qiynalmasdan va birmuncha ravon bajaradigan bo‘lish uchun har bir ishda har qanday harakatlar qilish kerakligini va bu harakatlarning qay yo‘sinda amalga oshirilishini aniq bilib olish hamda esda qoldirish kerak bo‘ladi. Harakatlarni qayta-qayta takrorlash, mashq qilib borish natijasida kichik yoshdagi o‘quvchilarda uchrab turadigan ortiqcha va chalkash harakatlar yo‘qolib boradi. [87]

Yuqoridagi kabi tadqiqotlar boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuvni tashkil etilishining ta’lim samaradorligiga bevosita ta’siri mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bizning nazarimizda, boshlang‘ich ta’limda savod o‘rgatish jarayonida an’anaviy yondashuv hamda shaxsiy qadriyatli yondashuvning o‘ziga xos tafovutlari mavjud (1.1-jadval). Mazkur tafovutlarni tahlil qilish orqali shaxsiy qadriyatli yondashuvning an’anaviy yondashuvga nisbatan afzalliklarini belgilab olish mumkin.

1.1-jadval

Boshlang‘ich ta’limda savod o‘rgatish jarayonida an’anaviy yondashuv hamda shaxsiy qadriyatli yondashuvning qiyosiy tahlili

Boshlang‘ich ta’limda savod o‘rgatish jarayonida an’anaviy yondashuv	**Boshlang‘ich ta’limda savod o‘rgatish jarayonida shaxsiy qadriyatli yondashuv**
Dars tuzilishining qat’iy reglamenti	Darsda tasodifiy chetlanishlarga yo‘l qo‘yilishi, o‘quvchilar xohish-irodasining hisobga olinishi
Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan an’anaviy shakl, metod va usullar	Ta’lim jarayoniga oid faoliyat turlaridan samarali foydalanish: shaxsiy qadriyatli munosabatni shakllantirish, fikrlarni erkin bayon etish imkoniyati, imitasion o‘yinlar, bahs-munozara va boshqalar
O‘quvchilar faoliyatining qat’iy reglamentga asoslangan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonini tashkiliy	O‘quv-biluv faoliyati turlarini mustaqil tanlash va shaxsiy psixologik xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatini berish

boshqarish	
Dars davomida belgilangan rejaning bajarilishi va aniq belgilangan maqsadga erishishga yo‘naltirish	Har bir o‘quvchining individual xususiyatini hisobga olgan holda jarayon muddati o‘zgarishi mumkin
Savodxonlikning asosiy mezoni – o‘zlashtirilgan bilimlar hajmi va sifati	O‘quvchilarning savodxonligini asosiy mezoni – ularning o‘z-o‘zini anglashi orqali ongli faoliyatga jalb etilishi
“O‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatida kommunikativ to‘siqlar	Kommunikativ jarayonda o‘zaro shaxsni hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash, yordam berish, to‘siqning yo‘qligi, erkinlik asosida ijodkorlik darajasining oshib borishi, muloqot variantlarining xilma-xilligi
Ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini pedagogik rasional rivojlantirishga yo‘naltirish	Shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida o‘ziga ishonchni shakllantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish
Bilimlarni nazorat qilish va baholashda an’anaviy baholash tizimining ustunligi	Bilimlarni baholashning turli xil shakllari: testlar, so‘rovnomalar, o‘z-o‘zini baholash, portfolio yaratish

Yuqoridagi nazariy va amaliy tadqiqotlar hamda boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish jarayonida an’anaviy va shaxsiy qadriyatli yondashuvning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilish asosida biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyat hamda qadriyatli yondashuv tushunchalariga quyidagi mualliflik ta’rifini berdik:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyat – o‘quvchining yonidagilar va ta’lim-tarbiya jarayonida ijobiy ahamiyatga ega voqea-hodisalarning xususiyati, ularning psixologik-pedagogik tavsifi, ijtimoiy hayotiy hodisa bo‘lib, ularga nisbatan qadriyatli yondashuv, avvalo, o‘z-o‘zini va o‘zgalarni anglashi, faoliyat motivlarining shakllanishi, uning mazmunini tushunishini ta’minlaydi hamda hayotida sodir bo‘layotgan hodisalarga qadriyat sifatida qarashni shakllantiradi, o‘zini namoyon qilish, kreativ fikrlash sifatlarini oshiradi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Qadriyatlar tizimi boshqa yoshda bo‘lgani kabi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsi va uning shakllanganligining muhim

koʻrsatkichi hisoblanadi. Qadriyatlar tizimining rivojlanganlik darajasi, ularning rivojlanish xususiyatlari “boshlangʻich sinf oʻquvchisining qadriyatlar barqarorligi” sifatida shaxsining shakllanganligi, yaxlitligi va barqarorligi toʻgʻrisida xulosa berish imkonini beradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchisida mavjud boʻlgan qadriyat xususiyatlarining ta’siri va rivojlanish jarayonlarini ta’lim samaradorligiga ta’sirini oʻrganishda ularning shakllanish yoʻllari hamda faol hayotiy pozisiyasini belgilashga xizmat qiladi. Shu tufayli keyingi yillarda turli yoshdagi oʻquvchilar qadriyatlarining rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganishga e’tibor kuchaymoqda. Shu bilan birgalikda boshlangʻich sinflarda qadriyatlarning dinamik oʻzgarish xarakterini aniqlamasdan ularning keng miqyosli va koʻp bosqichli shakllanishini oʻrganish mukin emas.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini savod oʻrgatish jarayonida shaxsiy qadriyatli yoshdashuv asosida ta’lim-tarbiya berish orqali, ularda oʻqishga qiziqish va intilishlarini, oʻquv topshiriqlarini mustaqil bajarishlarini ta’minlashga erishish mumkin. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻquv faoliyati yetakchi faoliyat sifatida bilimlarni belgilangan tizimda oʻzlashtirishni ta’minlaydi, oʻquvchilarning savod oʻtganishi uchun zarur usullarni egallashga shart-sharoit yaratadi. Bu jarayonda oʻqituvchidan oʻquvchilarga ta’lim-tarbiya berishda, ularni hayotga va ijtimoiy mehnatga tayyorlashdek ustivor rolni egallash talab etiladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchisi uchun oʻqituvchi har doim hayotga va mehnatga sodiq siymo boʻlib qoladi. Boshlangʻich sinfda shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida savodga oʻrgatishda oʻqituvchi asosiy figura hisoblanadi.

II BOB. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI O‘QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR MAZMUNI

2.1-§. Shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishning psixologik-pedagogik omillari

Qadriyatlar rivojlanishi muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, u falsafiy-ijtimoiy (S.F.Anisimova, A.G.Zdravomislova, V.I.Sagatovskaya, V.P.Tugariova, L.P.Fomina, M.I.Babneva, O.I.Zotova, V.L.Ossovskiy, Yu.Pismak, P.I.Smirnov, V.A.Yadov va boshqalar), shuningdek, psixologik-pedagogik ishlar (B.G.Anan’yev, G.Ye.Zalesskiy, A.N.Leontyev, V.N.Myasiщyev, S.L.Rubinshteyn, E.A.Nesimova, Ye.N.Shiyanova, G.I.Xukina va boshqalar) da talqin etilgan. Ushbu tadqiqotlarda qadriyatlar muammosi falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan, “qadriyat” tushunchasiga ta’rif berilgan, qadriyatlar turlari va tuzilishi ochib berilgan, ularning tarkib topishi va rivojlanish darajalari aniqlashtirilgan.

Har qanday kishi o‘ziga xos qadriyatlar yo‘nalishlariga xos bo‘lgan individual xususiyatga ega. Inson faoliyatini qadriyatlar asosida tashkil etish uning jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga solib turuvchi muhim regulyator hisoblanadi.

Ehtiyoj va uning shaxs kamolotidagi o‘rni haqida psixologlar turlicha ta’rif berganlar. Jumladan, psixolog D.N.Uznadze “... ehtiyoj tushunchasi ... tirik organizm uchun zarur bo‘lgan va ayni paytda qo‘lga kiritilmagan barcha narsalarga taalluqli”, M.S.Kagan, A.V.Margulis, Ye.M. Etkindlar “ehtiyoj –bu kerakli narsalarning yetishmaslik oqibati”, V.A.Yadov “ehtiyoj – inson shaxsi va organizm faoliyati uchun kerak bo‘lgan zarurat va yetishmovchilik mahsuli”, L.I.Bojovich “ehtiyoj – individ organizmi va u shaxs taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan zarurat”, A.V.Petrovskiy “ehtiyoj – jonli mavjudot hayot kechirishining konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir”, deb ta’rif berganlar.[162]

Har bir kishi ehtiyojlar to‘plamiga ega bo‘lib, ular inson faoliyati va xulq-atvorining dastlabki stimullaridir. Ehtiyoj – bu inson uchun unda mavjud bo‘lgan va zarur bo‘lgan narsalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik, nomuvofiqlikni ifodalaydi. Aniqroq qilib aytganda, bu insonning xohishi, muhtojligi va real holatda o‘zida mavjud bo‘lgan narsalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Bunday ziddiyatlar insonni ehtiyojlarni qoplash uchun harakat qilishga undaydi, faoliyat uchun motivasiya uyg‘otadi. Inson atrofdan o‘z ehtiyojini qondirishi, ziddiyatli vaziyatni hal qilishi mumkin bo‘lgan ob’yektni izlay boshlaydi. Bunday ob’yektlar inson ehtiyojiga ko‘ra moddiy, ma’naviy yoki boshqa bir ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Aynan shunday vaziyatda insonning ehtiyojlarini qoplash uchun xizmat qiladigan har qanday ob’yekt, jarayon yoki hodisa uning uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, ya’ni qadrli bo‘ladi. Shaxsiy qadriyatlar yo‘nalishlari ayni damda unda mavjud bo‘lgan ehtiyojlari turiga ko‘ra ma’lum qadriyatlarga yo‘naltirilganligini aks ettiradi. Ayni qadriyatlarga e’tiborni qaratgan holda, inson o‘z faoliyatini ushbu qadriyatlarning yo‘nalishiga moslashtiradi.

L.S.Vigotskiy, L.I.Bojovich, E.Eriksonlarning tadqiqotlari tahliliga tayangan holda biz kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qadriyatlarga nisbatan munosabati va sezgirligi quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkinligini aniqladik: a) ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga nisbatan sezgirlik, ya’ni o‘quvchilarda kognitiv jarayonlarning ixtiyoriyligi, o‘ziga xos xususiyati, ichki harakatlar rejasining mavjudligi kabilarga munosabat, b) ma’lum bir muvaffaqiyatga erishish uchun ongli ravishda maqsad va xatti-harakatlarga nisbatan sezgirlik, ya’ni ularni ixtiyoriy tartibga solish, tajribalarni umumlashtirish, aks ettirish, axloqiy his-tuyg‘ularni intensiv shakllantirish, kattalarga cheksiz ishonch, o‘z qadr-qimmatini anglash, kompetentlilik hissi, bilish ehtiyojlarining ustunligi, o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish, o‘yin va mehnatni farqlash qobiliyati kabi yosh xususiyatlariga bog‘liq deb hisoblaymiz.

Qadriyat yo‘nalishi qadriyatlarning biror bir yo‘nalishiga qaratilganlik sifatida tavsiflanadi. Yo‘naltirish jarayonining quyidagi bir-biriga tutash fazalari aniqlangan: shaxsiy

qadriyatlarni oʻzlashtirish; oʻzlashtirilgan qadriyatlar asosida shaxsni oʻzgartirish: shaxsning oʻz-oʻzini loyihalashi va oʻz-oʻzini bashorat qila olishi.

Qadriyatga yoʻnalganlik shaxs yoʻnalganligining mazmunli tomonini, uning borliqqa munosabatini aks ettiradi, hamda qadriyatli yoʻnalganlik sub'yektga uchun shaxsiy ahamiyatga ega boʻlgan ijtimoiy qadriyatlar bilan aloqadorlikda borliqqa sub'yekt tomonidan berilgan bahosi sifatida qaraladi.

Qadriyatli yondashuvlar axloqiy ideallarda oʻz aksini topadi, bular esa shaxs faoliyatida maqsadli ravishda oliy koʻrinish hosil qiladi. Ideallar oʻzida belgilangan maqsadlarni namoyish etib, bu dunyoqarashlar tizimining oliy qadriyatidir.

Qadriyatli yondashuvlarni axloqiy fazilatlar sifatida tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik oʻrtasidagi qarama-qarshiikni vujudga keltiradi. Paydo kelgan qarama-qarshilikda oʻz navbatida, biri boshqasining oʻrniga qurbon boʻladi. Biroq insonparvar kishi axloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi.

Qadriyatli mazmunga ega ta'limda shaxsning xulq-atvori moʻljalga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yoʻnalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon boʻladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining konseptual interpretasiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, xulq-atvor - me'yor sifatida, qadriyatli munosabat - u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon boʻladi. Shunday koʻrinishda borliqni bilish va shaxsiy qadriyatli yondashuvni ma'naviy boshqarilishi yoʻnaltiriladi hamda mazmunan shaxs xatti-harakati va xulq-atvorini belgilab beradi. Shuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizasiyasi jarayoni sifatida koʻrilishi mumkin. Hayotda esa qadriyat shaxsni faol faoliyatga, oʻz-oʻzini tarbiyalash va oʻz-oʻzini rivojlantirishga uygʻotishi uchun, insonning ongli ravishda tushunib yetishi hali kamdir. Qadriyat faoliyat motivini uygʻotuvchi kuch sifatida qachonki, shaxs tomonidan interiorizasiyalansa, ichki mavjudlikning zarur lahzalarini taqdim etsa, inson oʻz faoliyati maqsadini aniq shakllantira olsa, uning insonparvarlik ma'nosini tushina bilsa, maqsadlarni amalga oshirishning samarali vositalarini topsa, toʻgʻri va oʻz vaqtidagi nazorat, oʻz xatti-

harakatini tuzata olsa va baholay olgandagina, aniq namoyon bo‘ladi. Interiorizasiya umuminsoniy qadriyatlarning shaxs oliy psixik funksiyasiga aylanishiga olib keladi. Shaxs rivojlanishi madaniyatining istalgan funksiyasi ham interpsixik va interapsixik ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, interiorizasiya eksteriorizasiya hamkorligida amalga oshiriladi - muhitni yangi ob’yektlarni yaratish yo‘li bilan ijodiy o‘zgartirishdir. Oxirgisi yordamida ehtiyojlarni yaratish amalga oshiriladi, u esa shaxs qadriyatli munosabati motivasiyasi asosini tashkil qiladi.

Hozirgi kunda faqat o‘tmish bilan bog‘liq hodisalarigina emas, balki hozirgi zamon o‘quvchilari, mustaqillik shart-sharoiti va imkoniyatlari asosida rivojlanayotgan ijtimoiy-ma’naviy hodisalarni qadriyat deb atashmoqda.

Olima M.O.Inomovaning talqiniga ko‘ra, - “Qadriyat- bu inson yoki jamiyatning u yoki bu ehtiyojini qondiradigan va ular manfaatiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy ehtiyoj va manfaatlar bo‘lib, ular hayotga qimmatdorlik nuqtai-nazaridan yondashishga asos bo‘la oladi. Umuman qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan kishi ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma’naviy boyliklardir”[1].

Qadriyatlar mazmuniga ko‘ra siyosiy, huquqiy, diniy, ma’naviy, axloqiy, umummadaniy, umuminsoniy, turmush va mehnat qadriyatlari kabi turlarga bo‘linadi. Umummadaniy qadriyatlar turiga mansub bo‘lgan pedagogik, didaktik, ta’limiy, tarbiyaviy qadriyatlar atamalari pedagogika fanida tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Shaxs qadriyatlari yo‘nalishlarini belgilashda uning bilimi asosiy pedagogik omil hisoblanadi. O‘quv predmetlari mazmunini tashkil etuvchi bilimlar va qadriyatlar tizimi o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar haqidagi qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim fanlariga doir davlat ta’lim standartlarini tahlil qilish asosida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning

[1] **M.O. Inomova. “Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash”. T.: 2000 y.**

ma’naviy kamolotiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan (inson, bilim, ijodkorlik, mehnat, oila, Vatan, dunyo, madaniyat) kabi integral tushunchalar kelajakda o‘quvchilar ma’naviy qadriyatlar tizimini belgilab berishini aniqladik. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan qadriyatlar mohiyatini anglash, ularni tushunish va baholash kabi faoliyat turlari ularning ma’naviy va amaliy tajribasi asosida sodir bo‘ladi. O‘z qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan bola o‘z navbatida olamni rivojlantirishga, o‘zlashtirishga hissa qo‘sha oladigan sub’yektga aylanadi.[41]

Demak, o‘quvchilarning individual vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladigan faoliyat turi qadriyatlarni o‘zlashtirishning ikkinchi muhim omili hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tomonidan axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirilishiga xizmat qiluvchi uchinchi muhim omil – bu bola faoliyatining tashqi (boshqa odamlar tomonidan) baholanishidir. Gumanitar psixologik qarashlarga ko‘ra shaxsning individual rivojlanishi jarayonida shaxsiy qadr-qimmatini bilishi ma’naviy ehtiyojlarning paydo bo‘lishidan oldin yuzaga keladi. Ya’ni ularning shaxsiy qadr-qimmati shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu esa o‘z navbatida, uning faoliyatini boshqa odamlar tomonidan tan olinish jarayonii asoslanadi. Ontogenezdagi o‘z-o‘ziga ijobiy munosabat shaxsning o‘z-o‘zini tahlil, o‘z-o‘zini baholash natijasida quriladi.

O‘z-o‘ziga ijobiy munosabatning shaxsiy qadriyatlarni belgilashga ta’siri uning asosiy funksiyalari bilan bog‘liq: birinchi navbatda, bu shaxsning ichki xotirjamlikka erishishiga yordam beradi, ikkinchidan, individual tahlilning ijobiy tomonlarini belgilaydi, uchinchidan, bu ijobiy natijaning manbai hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘z navbatida shaxsning qadriyatlar yo‘nalishlari, g‘oyalari, qadriyatlari va ideallarini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi. Tarbiyaning o‘ziga xos tomoni maktab yosh avlodni tarbiyalash tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida ta’limning har bir bosqichida ustunlik qiladi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida axloqning oddiy me’yorlarini o‘zlashtiradilar, turli vaziyatlarda ularga rioya qilishni o‘rganadilar. Ularda munosabat atrofdagi dunyoning moddiy ob’yektlariga (oziq-ovqat, kiyim-kechak, moliya, uy-joy va boshqalar kabi)

yo‘nalish bilan bir qatorda, inson hissiy-ahloqiy qadriyatlari deb ataladigan narsalarga ham yo‘naltirilgan bo‘ladi. Jumladan, bola uchun quvonch va hayajon uyg‘otadigan yangi narsalarni sotib olishdan zavqlanish bolaning narsalarga ega bo‘lish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qadriyat sotib olingan narsaning o‘zi emas, balki odam uni izlash va sotib olish paytida boshdan kechiradigan hissiy holatdir. Hissiy qadriyatlar komplekslariga nisbatan bunday yo‘nalishlar shaxsning hissiy yo‘nalishi deb ataladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insondagi qadriyatlar tizimi uning xulq-atvori, maqsadga muvofiq faoliyati davomida o‘zgarib boradi. Bunday dinamika tabiati shaxs ishtirok etadigan faoliyatning turlari va xususiyatlariga bog‘liq.

Demak, qadriyatlar shaxsning ijtimoiy xulq-atvori bilan tartibga solib turiluvchi individual xususiyatlar tuzilmasining yadrosidir. Uning muhim funksiyalaridan biri prognostik funksiyadir. Ya’ni qadriyatlar asosida insonning hayotiy pozisiyasi, kelajak rejalari ishlab chiqiladi, istiqboldagi shaxsiy rivojlanish pozisiyalari belgilab olinadi. Shuningdek, qadriyatlar nafaqat shaxsning bugunini, balki uning kelajakdagi faoliyatini ham tartibga solib turadi. Bundan tashqari qadriyatlar insonning hayotiy tamoyillarini, maqsadlari, vazifalari, ideallarini ham belgilashga xizmat qiladi. Shaxsning kelajagi haqidagi g‘oyasida qadriyatlar markaziy o‘rinni egallab turadi va ushbu maqsadga erishish uchun shaxsning barcha hayotiy qobiliyatlarini safarbar qiladi. Odob-axloq, ta’lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlar bebaho milliy meros, ma’naviy boylikdir. Ana shu milliy qadriyatlarni tiklash, ulardan foydalanish, yosh avlodga yetkazish mustaqillikni mustahkamlashda, unga qarshilik qiladigan har qanday kuchga zarba berishda, o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda dasturi amal bo‘ladi.

Shunindek, milliy-ma’naviy merosning tarkibiy qismi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiyoti yosh avlodning el-yurtga, ona zaminga cheksiz mehrini oshirishda, milliy g‘ururini o‘stirishda shak-shubhasiz muhim tarbiyaviy vosita xisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida ajdodlarimizning milliy iftixor tuyg‘usini yoshlar ongiga singdirishga oid tarixiy tajribasi yorqin aks etib turadi. Folklor asarlari yoshlar o‘rtasida axloqiy tarbiya sifatini oshirishga,

kelajak avlodni ma’naviy barkamol kilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuni hisobga olib, milliy madaniyatimizning eng qadimiy va hayotbaxsh an’analarini o‘zida mujassam etgan og‘zaki badiiy ijodi jumladan, ertaklar, maqollar, rivoyatlar, masallardan shaxsiy qadriyatli munosabatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojiyevalar tomonidan 2019 yilda yaratilgan "O‘qish kitobi" darsligida[1] keltirilgan "Ilm omonoati" rivoyati, Halollik", "Donishmand yigit" o‘zbek xalq ertaklari, "Ahillik - ulug‘ baxt" qirg‘iz xalq ertagi, "Donishmand ustoz", "Najmiddin Kubro" kabi rivoyatlar, shuningdek, S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimovlar tomonidan 2020 yilda yaratilgan "O‘qish kitobi"[2] umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinflari uchun darsligida keltirilgan "Davlat", "Ziyrak uch yigit" o‘zbek xalq ertaklari bilan o‘quvchilarni tanishtirish jarayonida shaxsiy qadriyatli munosabatni qo‘llanilishi ham o‘quvchilarning ta’lim faoliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash muhimki, inson ongi va faoliyatidagi qadriyatlar tizimi uning hayotini tartibga solib turadi hamda qadriyatlar mazmuni uning faoliyati tabiatiga, atrof-muhitga bog‘liq bo‘ladi.

2.2-§. Boshlang‘ich sinf savodxonlik darslariga shaxsiy qadriyatli yondashuv modeli

Ta’lim jarayoni shunday faoliyatki, bu faoliyat o‘zaro aloqador bo‘lgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning samarali hamkorligi asosida amalga oshirib boriladi. Mazkur jarayonda boshlang‘ich sinf o‘quvchi shaxsining taraqqiyoti, uning bilim, ko‘nikmasi hamda tarbiyasi bevosita amalga oshadi. O‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchi mavzu mohiyatini mashg‘ulotlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yetkazadi. O‘quvchilar esa mavzuni o‘zlashtirib, ko‘nikmaga ega bo‘lib borishi natijasida undan amalda foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ta’lim olish jarayonida o‘quvchi shaxsi

[1] M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojiyeva. "O’qish kitobi" darsligi. Toshkent, 2019.

[2] S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G’ulomova. Sh.Sariyev, Z.Dolimov. "O’qish kitobi" darsligi. Toshkent, 2020.

oʻzlashtirishning bir nechta yoʻnalishlaridan foydalaniladi, oʻrganilayotgan manbalarni oʻzlashtirish, qayta ishlash hamda amaliyotga joriy qilishda oʻziga xos farqlarga asoslanadi. Shuningdek, mazkur jarayonda oʻquv va tarbiya masalalari oʻqituvchi va oʻquvchilarlarning dars jarayonidagi hamkorligi, oʻquvchilarning mustaqil faoliyati, sinfdan tashqari ishlar shaklida hal etiladi.

Boshlangʻich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni oʻzaro bogʻliq holda tashkil etishda oʻquvchi shaxsining rivojlanish xususiyatlari quyidagi mezonlarga tayanib amalga oshiriladi:

- oʻquvchi shaxsining yutuqlarga erishishida intilish motivining shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi;
- oʻquvchining oʻz xulq-atvori va faoliyatini ongli ravishda nazorat qilishini kuchaytirish;
- oʻzini oʻzi baholash va belgilangan talablarning darajasini baholash;
- oʻzlaridagi mavjud qobiliyatlarini bilishga oʻrgatish;
- mehnat qilishga oʻrgatish; kattalar va oʻz tengdoshlari bilan munosabatlarda qondiriladigan ijtimoiy motivlarning paydo boʻlishi;
- bilimining oshishi, chuqurlashuvi, koʻnikma va malakalarning rivolanib borishi, mahalliy va boshqa xalqlarning urf-odatlari, qadriyatlariga qiziqishining ortib borishi.

Oʻqituvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining savodxonligini oshirish jarayonida har bir oʻqituvchi, birinchi navbatda, oʻquvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirishi lozim. Chunki oʻqituvchi pedagogik faoliyatining uzviy qismini yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy jihatdan shakllantirish tashkil etadi. J.Gʻ.Yoʻldoshev, S.Nishonova, O.Musurmonova, B.B.Maʼmurov, V.A.Petrovskiy kabi olimlarning taʼkidlashlaricha, maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning shakllari, talim berish usullari, qarashlar nafaqat mamlakat hayotining oʻziga xos talablari bilan bogʻliq holda rivojlanib boradi, balki xalqning qadriyatlari, urf-odatlari, jamiyatning siyosiy jarayoni, oʻqituvchining kasbiy faoliyati, qarashlari va ijtimoiy tajribasi bilan ham bevosita bogʻliq boʻladi.


Pedagogning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, atrofdagilar va o‘quvchilar bilan amalga oshiradigan munosabatlari hamda unda shakllangan pedagogik madaniyat o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish sohasida rang-barang pedagogik nuqtai nazarlar mavjud. Bunda qadriyatli munosabat tajribasi o‘quvchilar ma’naviy kamolotini ta’minlashi alohida e’tirof etiladi.

Xalqimiz tarixida alohida o‘rin egallagan “Ustoz-shogird” munosabatlari, atrofdagilarga nisbatan toqatli munosabatda bo‘lish, ularning fikrlarini bardosh bilan tinglash va qabul qilish, hayotbaxsh g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, ezgulikka intilish, yaxshi amallarni egallash kabilar o‘zbek xalqi ijtimoiy tajribasidan o‘rin olgan muhim shaxsiy qadriyatli yondashuvning ko‘rinishlari hisoblanadi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun muayyan nuqtai nazarlar yig‘indisi, yaxlitligi, munosabatlar turini ajratish lozim. Qadriyatli munosabatlar dastlab, farzandlar bilan ota-onalar, o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasida vujudga keladi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadlaridan kelib chiqish lozim. Qadriyatli yo‘nalishlar o‘qituvchi qiziqishlarining ko‘rsatkichlari, ehtiyojlari, qarashlari va kasbiy faoliyatini mujassamlashtiradi. O‘qituvchi tajribasining natijasi uning kelajakdagi faoliyati va xulq-atvorini belgilaydi. Har qanday fikr shaxsiy tajribaning tarkibiy qismi sifatida dastlab o‘qituvchining o‘zida tug‘ilishi lozim. Agar o‘qituvchining o‘zida shaxsiy qadriyatli munosbat tajribasi mavjud bo‘lmasa, u o‘quvchilarda mazkur tajribani hosil qila olmaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv, o‘yin, mehnat, hordiq chiqari faoliyatning yetakchi turlari hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining o‘ziga xos imkoniyati sifatida: mazkur yetakchi faoliyat turlari jarayonida bolaning shaxsiy va ahloqiy sifatlarini shakllantirish; hayotiy xavfsizlik madaniyati to‘g‘risida tushunchalarni kengaytirib borish; kasb tanlash va kasblarning jamiyat hayotidagi o‘rni to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, uning inson hayotidagi rolini tushuntirish; kattalar

tomonidan rag‘batlantiriladigan faoliyat turlarida o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish; muvaffaqiyatga erishish motivlarini mustahkamlash; o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish; tengdoshlari bilan munosabatlar ta’sirining oshishi; milliy qadriyatlarni o‘rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashuvi; qiziqishlari bo‘yicha hamfikr uyushmalarga jalb qilinishi nazarda tutiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlilida ta’lim-tarbiyaning maqsadi uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri, o‘rinli va aniq foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, o‘quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, muloqatmandligini oshirish, o‘quvchi ongiga milliylik hamda milliy tarbiyani singdirish, tarbiyada qadriyat va an’analardan foydalanish, shaxsda barkamollik sifatlarini shakllantirilganligi a’kidlangan. Shaxsning xulq-atvori uning o‘ziga xosligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichdir. O‘quvchining tashqi xatti-harakatlari uning ichki holatlari haqida har tomonlama hukm chiqarish imkonini bermaydi. M.M.Baxtinning ta’biricha, shaxs xatti-harakatlar sub’yekti emas, balki xatti-harakatlar tizimining sub’yektidir. Shaxsning faoliyati to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvlar ularni yaxlit tahlil qilish kerakligi haqidagi nazariy xulosalarni chiqarishga asos bo‘lmoqda. Boshlang‘ich sinfda shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida savodxonlikni oshirishning texnologik modeli (2.1 rasm) da asosiy e’tibor 3-4 sinflarda o‘qish va ona tili darslaridan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda: milliy, ma’naviy-axloqiy va shaxsiy qadriyatlarnin shakllantirishga qaratiladi. Model bo‘yicha mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik-psixologik diagnostik tadqiqot metodikalari (kuzatish, test, suhbat) orqali o‘qituvchilarning terminal va instrumental, shaxsiy qadriyatlari tizimi diagnostika qilinadi. Tadqiqot ishimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatlar shakllanishi, o‘qituvchining ustun qadriyatlariga bog‘liq bo‘lishini asosiy mezon sifatida qaraladi. Ayni paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy, ma’naviy-axloqiy, shaxsiy qadriyatlari tizimining shakllanganligi diagnostika qilinadi.


O‘quvchilarda shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida savodxonlikni oshirish texnologiyasi
3-4 sinflarda o‘qish darsidan mustaqil ishlarni bajarish
3-4 sinflarda ona tili darsidan mustaqil ishlarni bajarish
Milliy qadriyatlar tizimini
Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini
Shaxsiy qadriyatlar tizimini
O‘quvchilarga shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida savodxonlikni oshirishning asosiy vazifalari
O‘qituvchilarning terminal va instrumental, shaxsiy qadriyatlari tizimini diagnostika qilish
O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy, shaxsiy qadriyatlari tizimini diagnostika qilish
Pedagogik-psixologik diagnostik tadqiqot metodlari (kuzatish, test, suhbat)
Trening va o‘yinli texnologiyalar asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarda o‘ziga, odamlarga, vatanga qadriyatli munosabatini tizimli rivojlantirish
O‘quvchilarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantiruvchi pedagogik-psixologik vositalar asosida shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish
O‘quvchilarda bilish faolligini oshirishning pedagogik-psixologik vositalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantish
O‘quvchilarda hissiy sezgirlikni oshirishning pedagogik-psixologik vositalari asosida ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni shakllantish
Mikrofon, Men a’lochi o‘quvchi, Menga juda kerak, qadrli mashg’ulotim
Men odobli o‘quvchi
Menga yoqadigan bayramlar, Avlodlar merosi,
To‘garak ishlari
Pedagogik psixologik trening mashg’ulotlari
Uyga vazifa
Mustaqil topshiriqlarni bajarish shakli va vositalari (suhbat, viktorina, bahs-munozara, kitobxonlik kechalari)

2.1-rasm. **Boshlang‘ich sinf** o‘**quvchilarda shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida savodxonlikni oshirishning texnologik modeli**

Ikkinchi bosqich trening va o‘yinli texnologiyalar asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarda o‘ziga, odamlarga, Vatanga qadriyatli munosabatini tizimli rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu boradagi ishlar quyidagi uchta yo‘nalishda tashkil etiladi va barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida olib boriladi:

- o‘quvchilarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantiruvchi pedagogik-psixologik vositalar asosida shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish;

- o‘quvchilarda bilish faolligini oshirishning pedagogik-psixologik vositalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish;

- o‘quvchilarda hissiy sezgirlikni oshirishning pedagogik-psixologik vositalari asosida ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni shakllantirishdan iborat.

Shakllantiruvchi bosqichda “Mikrofon, Men a’lochi o‘quvchi, Menga juda kerak, qadrli mashg‘ulotim”; “Men odobli o‘quvchi”; “Menga yoqadigan bayramlar, Avlodlar merosi” deb nomlangan yo‘nalishlarda to‘garak ishlarini tashkil etish, pedagogik-psixologik trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish, uyga vazifa berish amalga oshiriladi.

Mustaqil topshiriqlarni bajarish shakli va vositalari sifatida suhbat, viktorina, bahs-munozara, kitobxonlik kechalari kabilardan foydalaniladi.

Bugungi kunda o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyatiga innovasion jarayon sifatida yondashish taqozo qilinmoqda. Bu faoliyat o‘zida 3 ta muhim tarkibiy qismni mujassamlashtiradi: mustaqil fikrlash, ijodkorlikka asoslangan jarayonli hamda moyillikka asoslangan qadriyatli faoliyat ko‘rinishlari. Ta’lim-tarbiya berish o‘quvchilarda mustaqil fikrlashga o‘rgatish sifatida qaralar ekan, bunda o‘quvchilar ma’naviy rivojlanishning sub’yekti sifatida namoyon bo‘ladilar. O‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati davomida qadriyatlarni yaxshi bilishi, ularning ma’naviy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qila olishi lozim. Bunda


quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi: a) ijtimoiy-axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarni bilish; b) pedagogik faoliyat maqsadiga moslashtirilgan vaziyatli, funksional yondashuvlarni o‘zlashtirgan bo‘lish; v) o‘qituvchining shaxsiy-kasbiy qiziqishlari, kasbiy faoliyati, tajribasini belgilovchi yondashuvlarning mohiyatini anglab yetishlar kabilar.

Ulug‘ donishmandlardan biri “... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit”, degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Bu Prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi.[161]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligiga shaxsiy-qadriyatli yondashuvni tashkil etish modeli (2.2.rasm) uch blokdan iborat bo‘lib, birinchi, “Maqsadli axborot bloki” da savodxonlikni oshirish jarayoniga DTS hamda jamiyat talablari belgilanib; ularni harakatga keltiruvchi kuchlar sifatida to‘rtta amezon bo‘yicha an’anaviy va shaxsiy qadriyatli yondashuvning farqi va afzalliklari keltirilgan. “Maqsadli axborot bloki” da asosiy maqsad shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishdan iborat.

Modelning ikkinchi “Mazmunli bloki” da esa sinfda va sinfdan tashqari ishlarda savod o‘rgatish jarayoniga shaxsiy qadriyatli yondashuvni amalga oshirish shakllari bayon etilgan bo‘lib, unda asosiy shakllar sifatida o‘quvchi shaxsi, o‘quv-biluv faoliyati, shaxsiy qadriyatlar, o‘yin faoliyati, o‘qituvchi faoliyati ko‘rsatilgan.

Uchinchi “Natija bloki” boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlikka qadriyatli munosabatining to‘tr mezoni, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligi shakllanganligining to‘trt darajasi asosida savodxonligi rivojlangan o‘quvchining shakllanishi natija sifatida ko‘rsatilgan.



2.2-rasm. **Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligiga shaxsiy-qadriyatli yondashuvni tashkil etish modeli**

2.3-§. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatli munosabatni takomillashtirish metodikasi

Trening mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish uchun ishni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda qadriyatli yondashuvni rivojlantirishga mos bo‘lgan bir qator mezonlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish qadriyatli yondashuvini shakllantirishning pedagogik-psixologik trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish tartibi bo‘yicha “Qadriyatli munosabatlarni shakllantirish” trening dasturi va ssenariysini ishlab chiqish.

2. Trening o‘yinlarini amalga oshiruvchi shart-sharoitlarni tashkillashtirish.

3. O‘quvchilarning yoshiga xos trening o‘yinlari ketma-ketligini belgilash va ko‘nikmalarni tarkib toptirishni ta’minlash.

4. O‘quvchilarning xulqida trening jarayonlarida ro‘y bergan o‘zgarishlarni monitoring qilish.

5. Pedagogik-psixologik trening mashg‘ulotlaridan so‘ng o‘quvchilarda qadriyatli munosabatlarni aniqlovchi va shakllantiruvchi ilmiy tadqiqot natijalarini taqqoslash.

Mashg‘ulotlar va ularni o‘tkazish jarayoni o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga, o‘qituvchilari va Vatanga nisbatan munosabat bildirishda ularning yoshiga xos axborot olish va axborot uzatishda vujudga keladigan qiyinchiliklarning oldini olish, qadriyatli munosabatni rivojlantiruvchi xulq-atvor me’yorlariga amal qilishda qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan (trening mashg‘ulotlari matni ilova qilinadi).

Treningning maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qadriyatli munosabatini rivojlantirish va ularni shakllantirishdan iborat. Biz o‘quvchilarning yoshini inobatga olib, trening mashg‘ulotlarini o‘tkazishda bahs-munozarali suhbat va rolli o‘yinlar shaklidan foydalanishni lozim topdik va quyidagi vazifalarni belgiladik:

- 3, 4–sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘ziga, o‘qituvchiga, Vatanga qadriyatli munosabat bildirishning pedagogik-psixologik jihatlarini o‘rganish;

- trening mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning qadriyatli munosabatga nisbatan ko‘nikma-malakalari, xulqiy kechinmalarini tarkib toptirish va rivojlantirish;

- o‘quvchilar qadriyatli munosabatlarini shakllantiruvchi mashg‘ulotlar ketma-ketligini mantiqan belgilash;

- trening mashg‘uloti natijalarini va samaradorligini monitoring va tahlil qilish.

Trening o‘yinlarining tanishuv qismida tadqiqot o‘tkazuvchi o‘zini o‘quvchilar bilan tanishtirib, qo‘yilgan maqsad haqida qisqacha qiziqarli tushuncha beradi. Bunday holat mashg‘ulot o‘tkazuvchiga nisbatan ilk tasavvurlarning hosil bo‘lishi va o‘zaro munosabatga kirishishda samaradorlikka erishishga yordam beradi. Tanishuvda o‘quvchilardan doira shaklida o‘tirishlari taklif qilinadi va tanishuv o‘yinlaridan biri tanlanadi. Masalan, “Ismlar – fazilatlar” mashqini o‘tkazildi (ilova 3).

O‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun harakatli o‘yinlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, “Yomg‘ir” o‘yini (ilova 4), bunda o‘quvchining barcha xatti-harakatlari, psixologik xususiyatlari, qadriyatli munosabatini harakatlar yordamida shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Trening o‘tkazuvchi mashg‘ulotni boshlashdan avval o‘quvchilarga o‘yin qoidalarini tanishtiradi, ya’ni:

- tartib-intizom qoidalariga amal qilish;
- e’tibor bilan tinglash;
- bir-birini hurmat qilish;
- o‘z fikrini tortinmasdan erkin bayon etish;
- o‘zgalar fikrini bo‘lmasdan tinglash;
- savollarga tez va aniq javob berishga odatlanish;
- mashg‘ulotning oxirigacha faol qatnashish kabi qoidalarni doskaga yozib borish.

Kutilayotgan natijalarni aniqlash.

Trening mashg‘ulotini o‘tkazuvchi, bugungi mashg‘ulotdan o‘quvchilarni qanday yangiliklar kutayotganligini savollar orqali aniqlashga harakat qiladi va ularning fikrlarini doskaga yozib izohlab beradi.

Mana shu jarayonlar bir muncha qiyinchilik bilan amalga oshsa-da, o‘quvchilarning guruhdagi qadriyatli munosabatlarini oshiradi va asosiy bosqichda ishlash imkoniyatini yaratadi.

1. Asosiy qism.

Treningning ushbu qismida o‘quvchilarning qadriyatli munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarning mazmun-mohiyatiga ko‘ra amaliy faoliyatga joriy etish, maqsad sari muammoning yechimiga borish nazarda tutiladi.

“Aqliy hujum” metodi o‘quvchilar bilan muloqotga kirishda sen o‘zing haqingda nimalarni bilasan, qanday xususiyatlaring yoqadi, o‘qituvchilaringdan kimlarni ko‘proq yoqtirasan, Vatan deganda nimani tushunasan, maktabga borish ma’qulmi, maktabda nimalar bilan mashg‘ul bo‘lasan, uyda nimalar bilan shug‘ullanasan? kabi savollar bilan o‘zaro fikr almashish motivlari berilib, o‘quvchining qadriyatli yondashuvi, psixologik holatlari o‘rganilib boriladi.

“Qadrlash” mashqi. Bunda o‘quvchilar o‘z istaklariga erishish uchun avvalo o‘zini, o‘qituvchini, Vatanni va boshqalarni qadrlash zarurligi haqida tushuncha hosil qiladilar va bu jarayonda qadriyatli munosabatlarini shakllantiruvchi harakatlar kuzatiladi.

“Men maktabga borishni xohlayman” mashqida o‘quvchining xohish-istaklariga ko‘ra kattalar tomonidan to‘g‘ri yo‘nalish berish orqali munosabat bildirishlari shakllanib borishi kuzatiladi. Shundan so‘ng refleksiya holatlarini qo‘llash mumkin, bunda o‘quvchilarning qadriyatli munosabatlari shakllanishiga xos qayta aloqalar o‘zaro fikr almashish bilan tekshirib ko‘riladi.

Refleksiya holatiga ko‘ra “Men kimman” mashqini bajarish mumkin, bunda o‘quvchining o‘zini bilishi, qadrlashi va boshqalarga o‘z ta’sirini o‘tkazish orqali shaxsiy qadriyatlarning shakllanishida muammoli psixologik holatlar vujudga kelishi kuzatiladi.

Trening mashg‘ulotlarining borishida rolli o‘yinlardan foyda-lanish o‘quvchilarda samarali qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

“O‘qituvchi-o‘qituvchi” o‘yinida o‘quvchining o‘qituvchi rolini bajarishi orqali qadriyatlarga, boshqalarga nisbatan hurmati,

muloqot madaniyatini oshirish kabi xususiyatlari shakllanishini kuzatish mumkin.

“O‘qituvchi-o‘quvchi” o‘yinida o‘quvchi ta’lim muhitida o‘z vazifasini mas’uliyat bilan bajarishi, boshqalarni qabul qilishi, yordam ko‘rsatishda ularni tushunish, pedagogik-psixologik kontakt o‘rnatish texnikasiga amal qilish kabi qadriyatli munosabatni oshiruvchi sifatlar tarkib topib borishi kuzatiladi.

“O‘quvchi – o‘quvchi”, “Ota va o‘g‘il”, “Ona va qiz” o‘yini orqali rollarni bajarishda o‘quvchilikdan yosh, mavqeyi (status), jins tafovutlariga qarab faoliyatga kirishishda qadriyatli munosabatlarini shakllantirishga alohida e’tibor berish talab etiladi.

3. Yakuniy qismda trening mag‘ulotlariga yakun yasalib, o‘quvchilar bilan qayta aloqa o‘rnatiladi.

Qayta aloqa. Mashg‘ulotni olib boruvchi “siz bilan biz trening mashg‘ulotlari jarayonida kutilgan samarali natijaga erisha oldikmi?” degan savol va javob bilan mashg‘ulotga nisbatan munosabatini tahlil qiladi hamda bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lganligi to‘g‘risida xulosa chiqaradi.

Mashg‘ulotlarni olib borish uchun dastur bo‘yicha trening ssenariysi tuzilishi va shu asosda ishni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Biz tadqiqot ishimizni samarali borish uchun o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning dasturiy ssenariysini ishlab chiqdik. (Trening mashg‘ulotlarining dasturiy ssenariysi dissertasiyaning ilova qismida havola etiladi.)

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish maqsadida mavzuga doir tuzilgan dastur va ssenariy asosida trening mashg‘ulotlarini o‘tkazishga harakat qildik. Mashg‘ulotga qadriyatli munosabat yo‘nalishlari bo‘yicha darajaviy ko‘rsatkichlari (jadval 2.2.4) past, o‘rtachadan past bo‘lgan “O‘z–o‘ziga” 42 nafar, “O‘qituvchiga” 56 nafar, “Vatanga” 29 nafar, jami 56 nafar o‘quvchilar tanlab olindi va ularga mashg‘ulotning borishi to‘g‘risidagi tartib-qoidalar tushuntirildi, tarbiyachilar va ota-onalar esa kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi ta’kidlandi. Trening mashg‘ulotining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda qadriyatli yondashuvlarini

shakllanishida qanday muammoli ziddiyatlar mavjudligi, ularni artaraf etish yo‘llari va o‘quvchi bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Trening mashg‘ulotini amalga oshirishda bir qancha to‘siqlarga duch keldik, ya’ni o‘quvchilarda diqqatining tarqoqligi, tasavvur qilishi va idroki, ko‘nikma va malakalari yetarli emasligi kabi holatlar kuzatildi. Maqsadga erishish uchun ushbu holatlardan chiqishda ba’zi bir harakatli mashqlar va rolli o‘yinlardan ham foydalandik. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish davomida o‘quvchilarning o‘ziga o‘zi, tengqurlariga, o‘qituvchilariga, kattalarga nisbatan munosabatda bo‘lishi, qadriyatli yondashuvni, imkoniyati, xulq-atvoridagi shaxsiy hislatlari, aqliy harakatlari, idroki, tasavvur qilishi va mantiqiy tafakkuri, nutq faoliyati kabi psixologik xususiyatlarni rivojlantiruvchi jihatlarning mustahkamlanishiga e’tibor qaratildi.

Trening mashg‘ulotini o‘quvchi imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda «Aqliy hujum» metodidan boshladik, bunda o‘quvchilarning yoshiga mos qiziqarli savol-javoblar tashkil etildi va mashg‘ulotga faol ishtirok etish motivlari shakllantirildi.

Navbatdagi mashq **“**Shaxsiy fazilatlar” deb nomlanib unda, o‘quvchining boshqalar bilan erkin munosabatga kirishish, o‘zining shaxsiy fazilati haqida fikrini aytishga imkoniyat yaratiladi. O‘yinda har bir o‘quvchi o‘z ismini va o‘zi uchun eng yoqimli fazilatni soat strelkasi bo‘yicha aytib o‘zini tanishtirdi. Masalan, Aziza – aqlli, Sohib – odobli, Abdusattor – mehnatkash, Adiba – rostgo‘y. Bu mashqda o‘ziga nisbatan qadriyatli munosabat shakllanishi uchun imkoniyat yaratilib, birlamchi shaxsiy qadriyatli munosabatlarni namoyon qilishi kuzatildi. Mashqning yakunlashi bilan faoliyatga kirishuvchanlikni oshirish maqsadida harakatli o‘yinlardan foydalanishni lozim topdik.

“Qadrlash” mashqida har bir ishtirokchi o‘quvchiga 3 tadan raqamlangan kartochka tarqatiladi, birinchi kartochkaga o‘zini ifodalovchi, ikkinchi kartochkaga o‘qituvchini ifodalovchi, uchinchi kartochkaga Vatanni ifodalovchi eng qadrli 3 tadan so‘z yozish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar vazifani bajarganlaridan so‘ng kartochkalarga nima uchun aynan shu so‘zlarni yozganligini bayon etishlari so‘raladi.

“Men maktabga borishni xohlayman” mashqini bajarishda har bir o‘quvchidan maktabga kelish xohish-istaklari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berish so‘raldi. O‘quvchilarda fikr bildirish davomida o‘zini o‘zi baholash darajasi oshganligi, maktabga nisbatan erkin fikr bildira olishi, sinfdoshlari va o‘qituvchilariga nisbatan munosabatlarida ijobiy his-tuyg‘ularni namoyon etishlari kuzatildi.

Refleksiya holatiga ko‘ra “Men kimman?” mashqi bajariladi. Ushbu mashqni o‘tkazish uchun o‘quvchilarga 5 ta “Men ....man” deb yozilgan jumlalar beriladi, o‘quvchilardan ushbu jumlalarga javob yozishi so‘raladi. Bunda o‘quvchining o‘zini bilishi va qadrlashi, boshqalarga o‘z ta’sirini o‘tkazish orqali shaxsiy qadriyatlarning shakllanishida muammoli psixologik holatlarni yengish kuzatiladi.

